

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТҮПЛАМИ

34-35-сон
(1158-1159)
2024 йил
август

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик түплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўtkазилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Биринчи бўлим

294. «Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор» фаҳрий унвонини таъсис этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 30 августдаги ЎРҚ-952-сон Конуни

Иккинчи бўлим

295. «Ёқилғи-энергетика тармоғида давлат назорати тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 23 августдаги ПФ-118-сон Фармони

296. «Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан тўртинчи очик мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 30 августдаги ПФ-132-сон Фармони

297. «Ўзбекистон Республикасида 2024 — 2030 йилларда давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 30 августдаги ПҚ-308-сон қарори

Учинчи бўлим

298. «Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритишда давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар ҳамда мазкур тадбирларни молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 19 августдаги 515-сон қарори
299. «Давлат мактабгача таълим ташкилотлари директори лавозимига номзодларни менежерлик ўқув курсларида ўқитиш, уларга менежерлик сертификатини бериш ва номзодларни лавозимга тайинлаш тизимини жорий этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 27 августдаги 531-сон қарори

Бешинчи бўлим

300. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldaggi 22024/2-son “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda qo‘srimcha va yordamchi funksiyalarini autsorsing shartlarida tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3367-1*)
301. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 24-iyuldaggi 23/12-son “O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 20-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1829-4*)
302. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2024 йил 9 августдаги 427-сон “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тергов ҳибсоналарининг ички тартиб қоидаларининг 180-бандига ўзгартириш киритиш тўғрисида”ги бўйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2456-7*)
303. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 24 июлдаги 164-сон “Ўзбекистон Республикаси божхона худудида автомобиль ва темир йўл транспорт воситаларида божхона назорати ости-

даги товарлар ташилганда юк бўлимларига махсус божхона пломбалари қўйиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш хақида”ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2904-4*)

304. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 24 июлдаги 165-сон “Дастлабки, даврий ва тўлиқ бўлмаган божхона юк декларацияларини расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартирышлар киритиш хақида”ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3296-3*)
305. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldaggi 2024/3-son “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 26-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3360-1*)
306. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 20-avgustdagi 19-mh-son “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihibalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyotiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 26-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3470-1*)
307. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Солик қўмитасининг 2024 йил 15 августдаги 2024-15-сон “Кассир-операциячининг назорат-касса дафтари шакли ва уни тўлдириш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорнинг 1-иловасига ўзгартирышлар киритиш хақида”-ги қарори (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2309-2*)
308. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 26-avgustdagi 24-mh-son “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3553*)
309. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagi 23-mh-son “Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1703-2*)
310. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagi 20-mh-son “Elektron arxiv to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish

kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2317-1*)

311. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagi 21-mh-son “Hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2347-2*)
312. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagi 22-mh-son “Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro‘yxatini tuzish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2360-1*)
313. O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining 2024-yil 21-avgustdagи 272-mh-son “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 30-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2219-15*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳукуқий хужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

БИРИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИННИГ ҚОНУНИ

294 Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор» фахрий унвонини таъсис этиш тўғрисида*

Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил
27 августда қабул қилинган

Сенат томонидан 2024 йил 28 августда
маъқулланган

1-модда. «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор» фахрий унвони таъсис этилсин.

2-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 22 декабрда қабул қилинган «**Давлат мукофотлари тўғрисида**»ги 176-I-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 11 апрелда қабул қилинган ЎРҚ-473-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, № 4, 221-модда; 2019 йил, № 9, 589-модда; 2020 йил, № 3, 200-модда, № 5, 299, 300-моддалар, № 6, 334-модда, № 12, 688-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2022 йил, № 8, 790-модда) **7-моддаси-нинг биринчи қисмига** қўйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қўйидаги мазмундаги **ўттизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор»;

ўттизинчи — ўттиз олтинчи хатбошилар тегишинча **ўттиз биринчи — ўттиз еттинчи хатбошилар** деб ҳисоблансан.

3-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 апрелда қабул қилинган «**Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонларини таъсис этиш тўғрисида**»ги 226-I-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, № 5-6, 64-модда; 1997 йил, № 2, 64-модда; 1998 йил, № 5-6, 114-модда, № 9, 164-модда; 2000 йил, № 5-6, 153-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 12, 688-модда; 2022 йил, № 5, 464-модда) қўйидаги қўшимчалар ва ўзгартириш киритилсин:

1) 1-модда:

қўйидаги мазмундаги **ўттизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор»;

ўттизинчи — ўттиз олтинчи хатбошилари тегишинча **ўттиз биринчи — ўттиз еттинчи хатбошилар** деб ҳисоблансан;

* Ушбу Қонун «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 30 августда эълон қилинган.

2) Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонлари тўғрисида-ги Низом «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган спортчи» фахрий унвони тўғрисидаги **матндан** кейин қўйидаги мазмундаги **хатбоши** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор» фахрий унвони бизнеснинг янги, юқори даромадли йўналишларини йўлга қўйган, соҳага инновацияларни кенг жорий қилиш, замонавий ишлаб чиқариш қувватларини барпо этиш, экспорт салоҳиятини ошириш, хорижий ва маҳаллий инвестицияларни фаол жалб қилиш, янги иш ўринларини яратиш орқали мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш ҳамда аҳоли фаровонлигини юксалтиришга муносиб ҳисса қўшиб келаётган, шунингдек фаолиятида давлат органлари билан ҳамкорликни амалга ошириб, ижтимоий лойиҳалардаги фаоллиги билан бошқаларга намуна бўлаётган, бизнес юритиша катта тажрибага эга бўлган, илфор ва ташаббускор тадбиркорлик субъектлари раҳбарларига ҳамда таъсисчиларига берилади»;

3) Ўзбекистон Республикаси фахрий унвонларининг кўкрак нишонлари тавсифи «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган спортчи» фахрий унвонининг кўкрак нишонига оид тавсиф матнidan кейин қўйидаги мазмундаги **матн** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор»

Кўкрак нишони диаметри 30 миллиметрли доира шаклида бўлади ва 925 пробали кумушдан тайёрланади. Нишоннинг қалинлиги 2,2 миллиметр.

Нишоннинг юз томонида, Ўзбекистон Республикасининг географик харитаси ҳамда қуёш нурлари фонида тадбиркорликнинг жадал ривожланиши ва унинг мамлакатимиз тараққиётiga қўшган муносиб ҳиссасини акс эттирувчи иқтисодий ўсиш белгиси ва тангалар акс эттирилган.

Нишоннинг айланаси бўйлаб пастки ўнг қисмида дафна новдаси ва юқори қисмида «XIZMAT KO'RSATGAN TADBIRKOR» ёзуви жойлашган.

Нишоннинг орқа томонида Ўзбекистон Республикасининг Давлат герби тасвирланган.

Тасвирлар ва ёзув қабариқ.

Нишоннинг юз ва орқа томонлари чеккалари қабариқ ҳошия билан ўралган.

Кўкрак нишонининг ички қисмига Ўзбекистон Республикасининг Давлат байроғи рангларида шойи лента сирилган қадағичга ҳалқа ва илмоқча ёрдамида уланади.

Қадағичнинг бўйи 16 миллиметр, эни 25 миллиметр.

Қадағичнинг орқа томонида нишонни кийимга тақиб қўйиш учун тўғноғич тарзидаги мослама мавжуд».

4-модда. Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси ва бошқа манбаатдор ташкилотлар ушбу Конуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

5-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:
хукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсинг;
республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-хуқуқий хужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

6-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 30 август,
ЎРҚ-952-сон

**«Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тадбиркор»
фаҳрий увони**

Олд томони



Орқа томони



ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

295 Ёқилғи-энергетика тармоғида давлат назорати тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида*

Энергетика соҳасида давлат назоратини амалга ошириш жараёнида манбаатлар тўқнашувининг олдини олиш, энергияни тежаш, ундан оқилона фойдаланиш ва энергия самарадорлигини ошириш ишларини тизимли ўйлаш, шунингдек, ушбу соҳада таъсирчан давлат назоратини таъминлаш мақсадида:

1. Вазирлар Маҳкамаси, Бош прокуратура ва Энергетика вазирлигининг Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекциясини (кейинги ўринларда — Ўзэнергоинспекция) унинг фаолиятини молиялаштиришнинг амалдаги тартибини сақлаб қолган ҳолда Вазирлар Маҳкамаси бўйсунувига ўтказиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

Белгилансинки, Ўзэнергоинспекция ёқилғи-энергетика тармоғида давлат назорати ва текширувани амалга оширувчи мустақил республика ижро этувчи ҳокимият органи ҳисобланади.

2. Ўзэнергоинспекцияга қўйидаги қўшимча вазифалар юклансин:

Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан биргаликда энергия самарадорлиги бўйича халқаро стандартларни жорий этиш ва мазкур соҳада халқаро ҳамкорликни кенгайтириш;

йиллик энергия истеъмоли 500 тонна шартли ёқилғидан юқори бўлган барча саноат корхоналарида энергия истеъмолини бошқариш тизимини (Energy Management System) жорий этишни назорат қилиш;

соҳада давлат назоратини амалга ошириш ва ҳисоботларни юритиш жараёнларини тўлиқ рақамлаштириш;

энергия аудиторларга малака сертификатларини бериш ва замонавий ўлчов лабораториялари бўйича минимал талабларни белгилаш.

3. Белгилансинки:

Ўзэнергоинспекция бевосита Вазирлар Маҳкамасига ҳисобдордир;

Ўзэнергоинспекция фаолияти республика бюджети маблағлари ва унинг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади;

Ўзэнергоинспекция бошлиғи Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан, унинг ўринбосарлари эса Вазирлар Маҳкамаси томонидан лавозимга тайинланади ҳамда лавозимидан озод қилинади.

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси»да 2024 йил 23 августда эълон қилинган.

** 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси»да эълон қилинган.

4. Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланиши назорат қилиш инспекциясининг ташкилий тузилмаси 1-иловага* мувофиқ тасдиқлансан.

Ўзэнергоинспекция бошлиғига, зарур ҳолларда, Ўзэнергоинспекция тузилмасига бошқарув ходимларининг белгиланган сони ва меҳнатга ҳақ тўлаш фонди доирасида ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилсан.

5. Энергия самарадорлиги ва қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш масалалари бўйича республика комиссиясининг (кейинги ўринларда — Республика комиссияси) янгиланган таркиби 2-иловага* мувофиқ тасдиқлансан.

Ўзэнергоинспекция Республика комиссиясининг ишчи органи этиб белгилансан.

6. Иқтисодиёт тармоқлари ва бошқа соҳаларда энергия самарадорлигини ошириш, саноат корхоналарининг бу борадаги ишини мувофиқлаштириш ҳамда энергетика соҳасидаги давлат назорати тизимини рақамлаштиришни жадаллаштириш мақсадида Ўзэнергоинспекциянинг марказий аппарати тузилмасида бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан сақланадиган мавжуд штат бирликлари доирасида 30 та штат бирлигидан иборат бўлган Энергия самарадорлигини ошириш департаменти ва Энергетика назорати соҳасини рақамлаштириш бошқармаси ташкил этилсан.

7. Ўзэнергоинспекция:

а) бир ой муддатда:

ушбу Фармонга мувофиқ Ўзэнергоинспекциянинг ташкил этилаётган таркибий бўлинмаларини юкланган вазифаларни профессионал даражада баҗаришга қодир бўлган юқори малакали кадрлар билан тўлдирсан;

мазкур Фармон талабларидан келиб чиқсан ҳолда Ўзэнергоинспекция фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича Ҳукумат қарори лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсан;

б) Энергетика вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда 2024 йил якунига қадар ҳалқаро ва хорижий институтларни, юқори малакали хорижий ҳамда маҳаллий эксперталар ва мутахассисларни жалб қилган ҳолда саноат тармоқлари ва ижтимоий соҳа объектлари энергия сифимининг жорий ҳолатини таҳлил қилиб, 2040 йилгача мўлжалланган энергия самарадорлик бўйича миллий дастур лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсан.

8. Ёқилғи-энергетика соҳаси кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш марказига қўйидаги қўшимча вазифалар юклатилсан:

иқтисодиёт тармоқларида ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш масалаларини таҳлил қилиш, шунингдек, энергия самарадорлиги кўрсаткичларини аниқлаш бўйича илмий тадқиқотларни амалга ошириш;

энергия тежовчи технологиялар ва энергия самарадорлигини ошириш бўйича тайёр техник ечимлар ишлаб чиқиш ҳамда ушбу соҳадаги ижобий хорижий тажрибани таҳлил қилиш ва ёритиб бориш;

бюджет ташкилотларига техник ва молиявий консультантлар хизматла-

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ри, шунингдек, соҳалар кесимида замонавий намунали техник ечимларни бепул асосда тақдим этиш;

энергия самарадорлигини ошириш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш учун инсон ресурсларини шакллантириш, шу жумладан, кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;

энергия аудиторлар малакасини ошириб бориш.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига З-илювага* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

10. Ўзэнергоинспекция манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонунчиликка ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

11. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси

Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 23 август,
ПФ-118-сон

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ**

296 Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан тўртинчи очиқ мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида*

Жорий йилнинг 20 август куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан очиқ мулоқоти доирасида келиб тушган 12 мингта мурожаатда кўтарилиган тизимли муаммоларнинг ечимига қаратилган таклиф ва ташабbusларни амалга ошириш ҳамда очиқ мулоқотда белгиланган устувор вазифаларни бажариш мақсадида:

1. Тадбиркорлар билан кенг муҳокамаларда билдирилган таклиф ва ташабbusлар асосида ишлаб чиқилган ва уларни рўёбга чиқариш бўйича 5 та йўналишдан иборат Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан 2024 йилдаги очиқ мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга ошириш дастури доирасида қўйидагилар:

ишлаб чиқиладиган қонунчилик хужжатлари лойиҳалари рўйхати (кенинги ўринларда — Рўйхат) 1-иловага** мувофиқ;

амалий тадбирлар режаси 2-иловага** мувофиқ тасдиқлансан.

2. Вазирлик ва идоралар раҳбарларига мазкур Фармонга 1-иловага мувофиқ қонунчилик хужжатлари лойиҳалари сифатли ва ўз вақтида ишлаб чиқилиши, келишилиши ва ўрнатилган тартибда киритилиши, шунингдек, мазкур Фармонга 2-иловага мувофиқ тадбирлар сўзсиз бажарилиши юзасидан шахсий жавобгарлик юклансин.

Топшириқларни тўлиқ бажармаган, кечиктириб бажарган ёки ижросини таъминламаган вазирлик ва идоралар раҳбарларига топшириқ ижроси муддати тугаган кундан бошлаб ижроси таъминлангунга қадар бўлган муддатда рағбатлантириш тўловлари тўхтатилиши белгилансан.

3. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ 2024 йил 1 ноябрдан:

давлат дастурлари асосида кичик ва ўрта тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга барча тижорат банклари ва микромолия ташкилотлари жалб қилинади;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 14 сентябрдаги ПҚ-306-сон қарорига асосан амалга оширилаётган «Кичик бизнесни узлуксиз қўллаб-қувватлаш» комплекс дастури доирасида кичик тадбиркорлик субъектларига ажратиладиган 100 миллион сўмгача гаровсиз микрокредитларни қайта молиялаштириш ёки улар бўйича кафилликлар тақдим этиш тартибини сақлаб қолган ҳолда тижорат банкларига ва микромолия ташкилотларига ўз ресурслари ҳисобига мазкур микрокредит миқдорини 300 миллион сўмгача оширишга рухсат этилади.

4. Иктиносидёт ва молия вазирлиги Солик қўмитаси билан биргаликда 2025 йил 1 январдан бошлаб электрон онлайн аукцион савдоларида қишлоқ

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 30 августда эълон қилинган.

** 1-2-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

хўжалигига мўлжалланмаган бўш турган ер участкаларини мулк ҳукуқи асосида реализация қилиш бўйича айланмани қўшилган қиймат солифидан озод этиш бўйича қонун лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

5. Вазирлар Маҳкамаси 2024 йил 1 ноябрга қадар тадбиркорлик субъектларига электр энергияси ва табиий газ учун тўловни олдиндан амалга оширишда қулайлик яратиш, электр энергияси ва табиий газ истеъмоли миқдорларига нисбатан шартномавий лимитларни ошириш ва ундан ортишига йўл қўйилган тақдирда ортиқ истеъмол қилинган электр энергияси ҳамда табиий газ учун қўшимча тўловни камида 10 бараварга камайтириш чораларини кўрсинг.

6. Белгилансинки:

а) экспорт операциялари бўйича қўшилган қиймат солиғи суммаси ўрнини қоплашда:

солиқ тўловчилардан Ўзбекистон Республикасининг божхона худудидан ўтказиш пунктида жойлашган божхона органининг товарлар белгиланган мамлакатга жўнатилганлигини тасдиқловчи белгиси қўйилган, товарга илова қилинадиган хужжатларни солиқ органларига тақдим этиш талаб этилмайди;

божхона органлари томонидан реал вақт режимида электрон ахборот алмашинуви воситасида солиқ органларига товарлар божхона чегарасини кесиб ўтганлиги тўғрисида тақдим этилган маълумотлар товарлар экспорт қилинганлигини тасдиқлаш учун асос бўлади.

Бунда мазкур тартиб ушбу Фармон кучга киргунга қадар бўлган даврдаги экспорт операциялари бўйича қўшилган қиймат солиғи суммаси ўрнини қоплаш учун тақдим этилган аризаларга нисбатан ҳам татбиқ этилади;

б) асбоб-ускуналар ва (ёки) бутловчи қисмлар импортига оид контрактда уларни етказиб бериш мuddati 180 кундан ортиқ этиб белгиланган бўлса, мазкур операция бўйича активларни репатриация қилиш мuddati сифатида контрактда кўрсатилган етказиб бериш мuddati эътироф этилади.

7. 2025 йил 1 январдан 2028 йил 1 январга қадар умумий овқатланиш корхоналарига фойда солиғи ставкаси 50 фоизга камайтирилсин.

8. 2024 йил 1 октябрдан бошлаб туроператорлик ва меҳмонхона хизматларини, 2025 йил 1 январдан бошлаб умумий овқатланиш хизматларини кўрсатувчи тадбиркорлик субъектларига 2028 йил 1 январга қадар ҳар ойнинг 25 санасига қадар тўланган қўшилган қиймат солиғининг бир қисмини қўйидаги миқдорларда республика бюджетидан қайтариш тизими жорий этилсин:

а) ойлик товар айланмасининг нақд пулсиз (тўлов терминаллари ёки мобил тўловлар орқали) қисми:

60 фоиздан ошган умумий овқатланиш корхоналарига — бюджетга тўланган қўшилган қиймат солиғининг 40 фоизи;

60 фоиздан кам умумий овқатланиш корхоналарига — бюджетга тўланган қўшилган қиймат солиғининг 20 фоизи;

б) туроператорлик ва меҳмонхона хизматларини кўрсатувчи тадбиркорлик субъектларига — бюджетга тўланган қўшилган қиймат солиғининг 20 фоизи.

9. 2025 йил 1 январдан бошлаб давлат харидларини (корпоратив буюртмачиларнинг тижорат мақсадларида амалга ошириладиган давлат харидларидан ташқари) амалга оширишда товарнинг ўзлаштириш даражасидан келиб чиқиб ишлаб чиқарувчиларни рағбатлантириш тизими йўлга қўйилсин. Бунда мазкур тизим Электрон кооперация портали билан бир қаторда давлат харидлари бўйича маҳсус ахборот портали воситасида барча давлат харидлари электрон тизимларида жорий этилади.

Савдо-саноат палатаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги ва Статистика агентлиги билан биргаликда иккى ой муддатда тармоқлар кесимида маҳаллий ишлаб чиқарилган маҳсулотлар түғрисидаги сертификатларни бериш тизимини ҳамда уларни ўзлаштириш даражаси бўйича реестрни жорий этсин.

10. Белгилансинки:

2024 йил 1 ноябрдан бошлаб барча учун очиқ холатда юритиладиган Инсон ҳаёти ва соғлиғига юқори хавф солувчи омиллар реестри (кейинги ўринларда — Реестр) жорий қилинади;

2025 йил 1 январдан бошлаб назорат қилувчи органлар томонидан тадбиркорлик субъектлари фаолиятини тұхтатып туришга факатгина Реестрга кириллган омиллар асосида йўл қўйилади, бундан тадбиркорлик субъектлари фаолиятини суд тартибда ҳамда қонунда белгиланадиган асослар бўйича тұхтатып туриш ҳолатлари мустасно.

11. 2025 йил 1 январдан бошлаб назорат қилувчи органлар томонидан тадбиркорлик субъектлари фаолиятида ҳукукбузарлик содир этиш хавфини аниқлаш бўйича «Хавфни таҳлил қилиш» электрон тизими жорий этилсин. Бунда текширув ва профилактика тадбирларини ташаббус этиш ушбу тизим натижалари асосида амалга оширилиши белгилансин.

12. Баш прокуратура Адлия вазирлиги ва Солиқ қўмитаси билан бир-
галикда бир ой муддатда фойда (даромад) ёки солиқ солинадиган бошқа
объектларни қасдан яширишни, камайтириб кўрсатишни, шунингдек, дав-
лат томонидан белгиланган солиқларни ёки йигимларни тўлашдан қасдан
бўйин товлашни содир этганлик бўйича жиноий жавобгарликка тортиш учун
асос бўладиган зарар миқдорини 2 баравар ошириш бўйича қонун лойиҳаси-
ни белгиланган тартибда киритсин.

13. Жаҳон савдо ташкилоти билан ишлаш бўйича идораларо комиссияга ташқи савдодаги тариф ва нотариф чораларни Жаҳон савдо ташкилоти талаблари асосида вақтинча тартибга солиш бўйича қарорлар қабул қилиш ваколати берилсин.

14. Шундай тартиб үрнатылсаки, унга мувофиқ:

Адлия вазирлиги Ҳисоб палатаси билан биргаликда ҳар ойда амалий тадбирлар режаси ва Рўйхатда белгиланган вазифаларни амалга ошириш ҳолатини ўрганиб боради, натижалари бўйича маълумот ва топшириқлар ижросида юзага келаётган масалалар ечими бўйича таклифларни Президент Администрацияси ва Вазирлар Махкамасига киритиб боради;

амалий тадбирлар режаси ва Рўйхатда белгиланган вазифаларни амалга ошириш ҳолати ҳар ойда Вазирлар Мажхумаси Раёсати мажлисларида кўриб

чиқилади, юзага келаётган муаммолар ечими бўйича ҳамда йўл қўйилган камчиликлар учун тегишли масъулларга чоралар кўриб борилади;

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси Назорат инспекцияси амалий тадбирлар режаси ва Рўйхатда белгиланган вазифалар масъул вазирлик ва идоралар томонидан белгиланган муддатларда ва сифатли ижро этилишини таъминлайди.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига З-илювага* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

16. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Савдо-саноат палатаси ҳамда манфаатдор идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонунчилик хужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

17. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари Ж.А. Қўчкоров ва Ж.А. Ходжаев белгилансин.

Фармон ижросини ҳар ойда мухокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 30 август,
ПФ-132-сон

* З-илюва «Қонунчилик маълумотлари миллый базаси»да эълон қилинган.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ**

297 Ўзбекистон Республикасида 2024 — 2030 йилларда давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш чора-тадбирла-ри тўғрисида*

«Ўзбекистон — 2030» стратегиясига биноан давлат-хусусий шериклик лойиҳаларига 2030 йилга қадар камидаги 30 млрд АҚШ доллари миқдорида хусусий инвестицияларни жалб қилиш мақсадли кўрсаткичини таъминлаш, ҳудудларда юқори иқтисодий ўсиш учун ҳудудларда зарур бўлган ижтимоий ва иқтисодий инфратузилмани ривожлантириш, электр энергиясини ишлаб чиқаришда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга оширишдаги муваффақиятли тажрибани бошқа соҳаларга татбиқ этиш мақсадида:

1. Кўйидагилар:

2024 — 2026 йилларда устувор давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар 1-иловага** мувофиқ:

2024 — 2030 йилларда давлат-хусусий шериклик асосида амалга ошириладиган лойиҳалар дастури (кейинги ўринларда — Дастан) 2-иловага** мувофиқ тасдиқлансан.

Бунда:

йирик шаҳарлар ўртасида қулай ва тезкор автомобиль қатнови учун қўшимча шароитлар яратиш мақсадида камидаги 1 000 км замонавий пулллик магистрал автомобиль йўлларини қуриш ва модернизация қилиш, шу жумладан Тошкент — Самарқанд ўйлини қуриш ишларини 2024 йилда ҳамда Тошкент — Андижон ўйлини 2026 йилда бошлаш;

йиллик энергия ўқотишлигини камидаги икки баравар пасайтиришни белгилаган ҳолда барча ҳудудларда электр тақсимлаш тармоқларини 2027 йил 1 июлга қадар, табиий газ тақсимлаш тармоқларини эса 2027 йил якунига қадар хусусий операторларга топширишни назарда тутувчи шартномаларни имзолаш;

йилига қўшимча 30 фоизгача электр энергиясини тежаш мақсадида 2028 йилга қадар барча маънан эскирган ирригация насос станцияларини модернизация қилиш бўйича келишувларга эришиш;

тоза ва доимий ичимлик суви билан таъминлаш қамровини 87 фоизга, марказлашган оқова сув таъминоти қамров даражасини 30 фоизгача оширишни назарда тутган ҳолда 2028 йил якунига қадар ҳар бир ҳудудда ичимлик ва оқова сув тармоқларини модернизация қилиш ва бошқарувга бериш учун хусусий компанияларни жалб қилиш;

400 мингдан ортиқ ўқувчилар сифимида эга замонавий таълим муассасалари ҳамда 300 мингдан ортиқ тарбияланувчилар сифимида эга мактабгача таълим муассасаларини ташкил қилиш мақсадида 2026 йилдан бошлаб давлат-хусусий шериклик (кейинги ўринларда — ДХШ) тамойиллари асосида

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси»да 2024 йил 30 авгуустда эълон қилинган.

** 1-2-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси»да эълон қилинган.

хар йили камида 100 та мактаб ва 100 та мактабгача таълим муассасаларини қуриш ва бошқаришни ташкил этиш;

илғор технологияларга асосланган тиббий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш мақсадида 100 мингдан ортиқ беморларга хизмат кўрсатувчи кўп тармоқли шифохоналарни қуриш ва уларни хусусий операторлар бошқарувига бериш лозимлиги инобатга олинсин.

2. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари Дастур лойиҳаларига халқаро молия институтлари талабини инобатга олган ҳолда Мактабгача ва мактаб таълим вазирлиги сўрови асосида ер майдонларини ажратиш учун шахсан масъул этиб белгилансин.

3. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги (Л. Кудратов) халқаро ва икки томонлама ташкил этиладиган бизнес форум, республика инвестиция салоҳияти бўйича тақдимотлар (роуд-шоу) доирасида салоҳиятли хорижий инвесторларни истиқболли ДХШ лойиҳалари билан таниширишни назарда тутсинг.

Бунда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги республикадаги ДХШ соҳасида амалга оширилаётган ишлар, қонунчилик ва истиқболли лойиҳалар бўйича тақдимотлар ўтказиб борсин.

4. Вазирлик ва идоралар раҳбарлари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари Дастур доирасидаги ДХШ лойиҳаларининг сифатли амалга оширилиши, амалиёта татбиқ этилиши ҳамда атроф-мухит ва ижтимоий хавфсизлик стандартлари га мувофиқлигини энг яхши халқаро амалиётлар асосида ташкил этсинг.

Бунда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов) махаллий ва хорижий стандартлардаги тафовутларни бартараф этиш ишларини мувофиқлаштиради ва тафовутларни бартараф этиш бўйича таклифларни Вазирлар Махкамасига киритиб боради.

5. Экология, атроф-мухитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги (А. Абдухакимов) бир ҳафта муддатда оқова сувларни тозалаш иншоотларига белгиланган Европа ва миллий стандартлар ўртасидаги тафовутларни бартараф этган ҳолда Наманган вилояти оқова сувлар таъминоти тизимини модернизация қилиш ва хусусий операторга бериш бўйича лойиҳани бошлаш юзасидан таклифларни Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритсинг.

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Энергетика вазирлиги билан биргаликда уч ой муддатда «Давлат қарзи тўғрисида»ги Қонунга ДХШ асосидаги лойиҳалар бўйича давлат томонидан қабул қилинадиган мажбуриятлар (сотиб олиш ёки тўлаб бериш) ва бериладиган тасдиқ хатларининг (Comfort letter) юқори чегарасини ўрнатишни назарда тутувчи ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан қонун лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсинг.

7. Дастурга киритилган лойиҳаларни ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш, Давлат-хусусий шериклик жамғармасига келиб тушган маблағларни самарали бошқариш, шу жумладан лойиҳаларга консультантларни жалб қилиш мақсадида Иқтисодиёт ва молия вазирлиги тузилмасида умумий штат

бирликлари доирасида давлат муассасаси шаклида «Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари маркази» лойиҳа оғиси (кейинги ўрингларда — Лойиҳа оғиси) ташкил этилсин.

Белгилансинки:

Лойиҳа оғиси доимий равишда роуд-шоу, давра сұхбатлари ва бошқа тадбирларни ташкил қилиш, халқаро платформалардан кенг фойдаланиш, ДХШ ўйналишида мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш бўйича ўқув семинарларини ташкил этиш, уларнинг амалиётини чет элда ўтказиш ҳамда халқаро сертификатлар олишни ташкиллаштиради;

Лойиҳа оғисига Дастан лойиҳаларида маҳаллий контентни қўпайтириш ва лойиҳаларни миллий валютада молиялаштиришни кенгайтириш бўйича ўқув дастурини ишлаб чиқиш вазифалари юклатилади.

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (Ж. Кўчқоров) икки ҳафта муддатда Лойиҳа оғиси низомини, шунингдек, унинг тузилмаси, меҳнатга ҳақ тўлаш ва моддий рағбатлантириш шартларини тасдиқласин.

8. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов):

а) бир ой муддатда:

ДХШ лойиҳаларини молиялаштириш имкониятларини кенгайтириш мақсадида халқаро молия ташкилотлари ва хорижий тижорат банклари иштирокида тўғридан-тўғри инвестиция жамғармаларини ташкил қилиш;

ДХШ лойиҳаларини «дастурий ёндашув» асосида салоҳиятли инвесторлар билан амалга ошириш, бунда хусусий шерик билан асосий шартларни келишиш (рентабеллик даражаси, муддатлар ва амалга ошириш механизмлари) ни кўзда тутувчи янги механизм бўйича таклифларни киритсин;

б) 2024 йил якунига қадар:

Рақамли технологиялар вазирлиги (Ш. Шерматов) билан биргаликда ДХШ лойиҳалари амалга оширилишининг ҳар бир босқичини, шунингдек, ДХШ лойиҳалари реестрини юритиш ва мониторинги олиб боришини рақамлаштириш мақсадида ДХШ лойиҳаларининг электрон платформасини амалиётга жорий этсин;

тегишли вазирлик, идоралар ва давлат улушига эга компаниялар тизимишли мазкур платформага интеграция қилинишини таъминласин.

9. Вазирлик, идоралар ва давлат улушига эга компаниялар давлатнинг тўғридан-тўғри ва шартли мажбуриятлари тўғри ҳисобга олинишини таъминлаш мақсадида Иқтисодиёт ва молия вазирлигига икки ҳафта муддатда тузилган барча ДХШ битимлари матни юборишишини, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (Ж. Каршибаев) мазкур лойиҳаларнинг истисно тариқасида соддалаштирилган тартибда Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари реестрига киритилишини таъминласин.

Бунда ДХШ тамойилларини ўз ичига олган барча узок муддатли инвестиция лойиҳалари, шу жумладан инвестиция тўғрисидаги қонунчилик доирасида имзоланган шартномалар ҳамда кичик лойиҳалар Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари реестрига киритилиши таъминланасин.

10. Ҳар бир ДХШ лойиҳасини ўз вақтида ва самарали амалга оширишини таъминлаш учун қўйидаги тизим жорий қилинсан:

Вазирлар Маҳкамасида ҳар чоракда мазкур қарорда белгиланган вазифаларнинг ижроси танқидий муҳокама қилиб борилиши йўлга кўйилади;

вазирлик, идора ва хўжалик бирлашмаларининг раҳбарлари томонидан ҳар йили бир марта ДХШ лойиҳаларининг ҳолати юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясида тақдимот қилинади.

11. Республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ҳамда хўжалик бирлашмалари Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда 2024 йил 1 ноябрга қадар 2024 — 2030 йилларда ДХШ асосида амалга ошириладиган лойиҳалар дастурига киритилган ҳар бир ДХШ лойиҳаси бўйича уларни амалга оширишнинг ҳудудлар кесимида комплекс тармоқ жадвалларини ишлаб чиқиб, Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

12. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов), Соғлиқни сақлаш вазирлиги (А. Худаяров), Маданият вазирлиги (О. Назарбеков) Спорт вазирлиги (А. Икрамов) ва Давлат активларини бошқариш агентлиги (А. Ортиков) Қорақалпогистон Республикаси Вазирлар Кенгashi Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари билан биргаликда 2024 йил якунига қадар самарасиз фойдаланиб келинаётган республикадаги йирик шифохоналар, маданият ва спорт иншоотларини (шу жумладан, маданият саройлари, стадионлар, концерт заллари, истироҳат боғлари) хатловдан ўтказиб, хусусий секторга ДХШ асосида ўтказиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

13. Белгилансинки, вазирлик, идора ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг биринчи раҳбарлари белгиланган мақсадли қўрсаткичлар ва вазифаларни тўлиқ, сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш ҳамда салоҳиятли инвесторларни жалб қилиш учун шахсан жавобгар хисобланади.

14. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Буш вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров белгилансин.

Қарор ижроси учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Буш вазири А.Н. Арипов зимасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 30 август,
ПҚ-308-сон

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

298 Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритишда давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар ҳамда мазкур тадбирларни молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш, шунингдек, янги ер майдонларини ўзлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 5 апрелдаги ПҚ-153-сон қарори ижросини таъминлаш, шунингдек, ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш орқали соҳада ёшлар иштироқини янада ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Кўйидагиларни назарда тутувчи Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритишда давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар ҳамда мазкур тадбирларни молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин:

янгидан ўзлаштириладиган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонларининг манзилли рўйхатини шакллантириш тартиби;

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирларини молиялаштириш тартиби;

янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонларини қабул қилиб олиш тартиби;

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирлари учун ажратилган маблағларнинг мақсадли ишлатилишини назорат қилиш.

2. Белгилансинки, мазкур тадбирларни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш, шунингдек, янги ер майдонларини ўзлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 5 апрелдаги ПҚ-153-сон қарорида назарда тутилган манбалар ҳисобидан ажратиладиган маблағлар туман (Қувасой шахар) ҳокиммилари захирасидаги ер майдонларини ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирларини амалга оширишда қўйидаги мақсадлар учун йўналтирилади:

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 20 августда эълон қилинган.

вертикал сүғориши қудукларини бурғилаш ва насос агрегатларини ўрнатиш ҳамда ишга тушириш;

дарёлар, каналлар ва бошқа сув объектларидан сув чиқариш учун зарур воситаларни сотиб олиш ва ўрнатиш;

сүғориши (канал, лоток) ва коллектор тармоқларини қуриш ҳамда реконструкция қилиш;

янгидан ўзлаштириладиган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонларини лазерли қурилмага эга ер текислагич агрегатлари билан текислаш.

3. Мазкур қарор талаблари фақатгина давлат ресурслари ва грант маблағлари ҳисобидан пудрат ташкилотлари томонидан туман (Қувасой шаҳар) ҳокимилиги захирасидаги ерларнинг янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган майдонларига нисбатан қўлланилади.

Қишлоқ хўжалиги субъектлари томонидан ўз ерида ёки ўз ҳисобидаги туташ ҳудудларда янги ерлар ўзлаштирилган ёки қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган холларда уларга давлат ресурслари ва грант маблағлари ҳисобидан пудрат ташкилотларини жалб этиш тақиқланади.

4. Вазирлар Маҳкамасининг «Қишлоқ хўжалигида фойдаланилмаётган ерларни фойдаланишга киритишда ирригация ва мелиорация объектларини қуриш ва реконструкция қилиш билан боғлиқ харажатларни қоплаб бериш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2020 йил 24 февралдаги 109-сон қарорига 2-иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

5. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг З-иловага мувофиқ айrim қарорлари ўз кучини йўқотган деб топилсин.

6. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосарлари Ж.А. Ходжаев ва Ж.А. Қўчкоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазари**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 19 август,
515-сон

Вазирлар Мажкамасининг
2024 йил 19 августдаги 515-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида
қайта фойдаланишга киритишда давлат томонидан амалга
ошириладиган чора-тадбирлар ҳамда мазкур тадбирларни
молиялаштириш тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом туман (Қувасой шаҳар) ҳокимликлари захирасида бўлган ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритишда давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар ҳамда мазкур тадбирларни молиялаштириш тартибини белгилайди.

Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимликлари захирасида бўлган ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирлари пудрат ташкилотлари томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшлигарга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш, шунингдек, янги ер майдонларини ўзлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 5 апрелдаги ПҚ-153-сон қарорида назарда тутилган манбалардан ажратиладиган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

2. Мазкур низомда қўйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш — сугорилмайдиган ерлар тоифасида бўлган лалми ерлар, яйлов ва бўз ерлар, мелиоратив қурилиш ҳолатидаги ерлар ва қишлоқ хўжалигида фойдаланилмайдиган ерларни ўзлаштириш орқали сугориладиган ерлар сифатида тоифалаш;

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича ишчи лойиҳа (кейинги ўринларда — ишчи лойиҳа) — ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича амалга ошириладиган тадбирлар учун талаб этиладиган ҳаражатлар ҳамда илмий асосланган иқтисодий ва техник хужжатлар, ҳисоб-китоблар ва тавсифлар тўплами;

пудрат ташкилоти — ишчи лойиҳада белгиланган тадбирларни амалга ошириш орқали ер майдонларини қишлоқ хўжалигида фойдаланишга киритадиган ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгashi ва вилоятлар ҳокимликлари томонидан энг яхши таклифларни танлаб олиш орқали аниқланадиган ташкилот;

фойдаланишдан чиқсан ерлар — йиллар мобайнида экин экилган ва муқаддам сугориладиган қишлоқ хўжалиги ерлари тоифасида бўлиб, бугунги кунда мелиоратив ҳолати ва сув таъминоти ёмонлашган ер майдонлари.

2-боб. Янгидан ўзлаштириладиган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонларининг манзилли рўйхатини шакллантириш тартиби

3. Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлиги захирасида бўлган ер майдонлари ни янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича туман (Қувасой шаҳар) комиссияси (кейинги ўринларда — туман (Қувасой шаҳар) комиссияси) томонидан янгидан ўзлаштириладиган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонларининг манзилли рўйхати (кейинги ўринларда — манзилли рўйхат) шакллантирилади.

4. Туман (Қувасой шаҳар) комиссияси ушбу Низомга 1-иловага* мувофиқ 9 нафар кишидан кўп бўлмаган таркибда тузилади.

Манзилли рўйхатни шакллантиришда туман (Қувасой шаҳар) комиссияси таркибига бошқа ваколатли давлат ташкилотлари ҳам жалб этилиши мумкин.

Туман (Қувасой шаҳар) комиссияси томонидан манзилли рўйхатни шакллантиришда қарорлар умумий овоз бериш йўли билан қабул қилинади.

Қарорларни қабул қилишда овозлар тенг бўлганда, туман (Қувасой шаҳар) комиссияси раиси ҳал қилувчи овозга эга бўлади.

5. Манзилли рўйхатни шакллантиришда қўйидаги муҳим жиҳатлар иnobatga олинади:

ер майдони жойлашган жойнинг 1:10 000 масштабдаги харитаси;

ер майдонининг қишлоқ хўжалигида фойдаланишдан чиқиш сабаби;

ҳисобот (ер баланси) бўйича ер майдонининг контур кесимидағи маълумоти;

ер майдонларини кафолатли сув билан таъминлаш имконияти мавжудлиги бўйича Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигининг хуносаси;

ер ости сувлари захирасининг мавжудлиги ва ундан фойдаланиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлигининг хуносаси;

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган тадбирлар ҳамда уларнинг тахминий ҳисоб-китоблари тўғрисида маълумотлар.

6. Лойиха ташкилоти икки ой муддатда туман (шаҳар) ҳокимларининг таклифларига кўра Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгashi ва вилоятлар ҳокимларни (кейинги ўринларда — буюртмачи) томонидан тайёрланган буюртманома асосида манзилли рўйхатдаги ер майдонларининг ишчи лойихаларини ишлаб чиқади.

Бунда лойиха ташкилоти Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунида белгиланган танлов олинади.

Лойиха ташкилоти томонидан ишчи лойихаларни ишлаб чиқиш билан боғлиқ харажатлар Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

тўғрисида»ги Конуни талаблари асосида давлат буюртмачиси билан расмий-лаштириладиган шартномага асосан 2024 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети параметрларида қишлоқ хўжалигида фойдаланилмаётган сувориладиган ер майдонлари ва чўл худудларида ерларни қайта фойдаланишга киритиш учун режалаштирилган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

7. Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлклари янгидан ўзлаштириладиган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонлари бўйича ишчи лойиҳаларда белгиланган тадбирларнинг тўғри ҳисоб-китоб қилинганлигига шахсан масъул ҳисобланади.

3-боб. Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирларини молиялаштириш тартиби

8. Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда 2024 йилда қўшимча 218 минг гектар ер майдонини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигига қайта фойдаланишга киритишни молиялаштириш учун Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимлклари:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги хузуридаги Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кеёнги ўринларда — Жамғарма) ҳисобидан ажратиладиган 200 млрд сўм бўйича Жамғарма билан;

Ўзбекистон Республикасининг «2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида»ги Конунида қишлоқ хўжалигида фойдаланилмаётган сувориладиган ер майдонлари ва чўл худудларида ерларни қайта фойдаланишга киритиш учун режалаштирилган 100 млрд сўм бўйича Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан депозит шартномасини тузади.

9. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимлклари тузилган депозит шартномаларига асосан ўзларининг худудларида ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритишни молиялаштириш учун тегишлича Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Жамғармага буюртманомаларни тақдим этади.

10. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Жамғарма тақдим этилган буюртманомаларга асосан Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимлклари учун бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармаси шаклида очиладиган ғазна ҳисобварақларига 12 ой муддатга маблағларни фоизсиз депозитга жойлаштиради.

Бунда маблағлар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимлкларининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги хузуридаги Фазначилик қўмитасида очилган ҳисобварақларига ўтказилади.

Депозитга жойлаштириладиган маблағлардан бошқа мақсадларда фойдаланиш қатъяни тақиқланади.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш, шунингдек, янги ер майдонларини ўзлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 5 апрелдаги ПҚ-153-сон қарорига мувофиқ Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигига қайта фойдаланишга киритиш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларида белгиланган тадбирларни амалга ошириш учун пудрат ташкилотларини, истисно тариқасида, энг яхши таклифларни танлаб олиш орқали аниқлайди ҳамда улар билан белгиланган тартибда шартномани расмийлаштиради.

12. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари томонидан пудрат ташкилоти қўйидаги мезонларга мувофиқ танлаб олинади:

мулкчилик шаклидан қатъи назар, юридик шахс бўлган, шунингдек, ушбу ўйналишда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтинослашган ҳамда тажрибага эга бўлган ташкилотлар;

пудрат ташкилотининг малакали мутахассисларга эга эканлиги;

ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигига қайта фойдаланишга киритиш, шу мақсадда ирригация-мелиорация обьектларини таъмирлаш-тиклаш, реконструкция қилиш ҳамда қуриш ишларини амалга оширадиган пудрат ташкилотининг молиявий имконияти ва инфратузилмаси ҳолати;

пудрат ташкилотида маҳсус техникалар ва кичик механизмларнинг мавжудлиги.

Танлов жараёнларида қўйидаги пудрат ташкилотлари иштирок этишига ўйл қўйилмайди:

қайта ташкил этиш (ажратиш, қўшилиш), банкрот деб топиш ёки тугашибга доир иш юритиш жараёни бошланган бўлса;

мол-мулки мусодара қилинган ҳамда муассислик келишуви, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳукукий ёки бир-бирига молиявий қарамлиги мавжуд бўлган.

13. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари пудрат ташкилоти билан расмийлаштирган шартномага мувофиқ тасдиқланган ишчи лойиҳада кўрсатилган маблағларнинг дастлабки 15 фоиз бўнак маблағларини уч кун муддатда қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда пудрат ташкилотининг тижорат банкидаги ҳисобварафига ўтказиб беради.

14. Пудрат ташкилоти дастлабки бўнак маблағлари тижорат банкидаги ҳисобварафига тушгандан сўнг, кечи билан ўн кун муддатда ишчи лойиҳада белгиланган тадбирларни бажаришга киришади.

15. Ишчи лойиҳада белгиланган тадбирларнинг 80 фоизи пудрат ташкилоти томонидан амалга оширилгандан сўнг Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари шартномада назарда тутилган

маблағнинг 80 фоизини белгиланган тартибда пудрат ташкилотининг тижорат банкидаги хисобварағига ўтказади.

16. Пудрат ташкилоти томонидан ишчи лойиҳада белгиланган барча тадбирлар тўлиқ бажарилиб, ишлар қабул қилингандан сўнг Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари шартномада белгиланган маблағнинг қолган 5 фоизини пудрат ташкилотининг тижорат банкидаги хисобварағига ўтказиб беради.

Бунда ер майдонларини ҳақиқатдан ҳам янгидан ўзлаштирилганлиги ёки қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилганлиги бўйича Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигидан хулоса олинади.

17. Пудрат ташкилоти Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликларига ишчи лойиҳада белгиланган барча тадбирларнинг бажарилганлиги тўғрисида ҳисботот тақдим этади.

4-боб. Янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонларини қабул қилиш тартиби

18. Янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонлари туман (Қувасой шаҳар) комиссияси томонидан ушбу Низомга 2 ва 3-иловаларга* мувофиқ тузиладиган далолатномалар асосида қабул қилиб олинади.

Бунда янгидан ўзлаштирилган ер майдонлари Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг хулососига мувофиқ қабул қилинадиган Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси ва вилоятлар ҳокимларининг қарорига асосан қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тоифасининг тегишли (субориладиган ва шартли субориладиган) турига ўтказилади ҳамда белгиланган тартибда ер ҳисботига ўзгартиришлар киритилади.

19. Янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонларининг ижара хуқуқи туман (Қувасой шаҳар) ҳокимликлари томонидан белгиланган тартибда электрон онлайн-аукцион савдололари чикарилади.

Юридик ва жисмоний шахслар янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонларининг ижара хуқуқини сотиб олиш учун электрон онлайн-аукцион савдоларида иштирок этиши мумкин.

20. Янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонлари учун сарфланган маблағлар ушбу ер майдонларининг ижара хуқуқини электрон онлайн-аукцион савдоларида сотишдан тушадиган маблағлар хисобидан қопланади.

Бунда янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонлари учун сарфланган маблағлар белгиланган тартибда маҳаллий бюджет орқали тегишли улушларда Жамғармага ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджетига қайтарилади.

* 2-3-иловалар «Конунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

21. Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонлари ҳақиқатдан хам фойдаланишга киритилганлиги хамда улардан мақсадли фойдаланиши юзасидан назорат ўрнатади.

5-боб. Якунловчи қоидалар

22. Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш жараёнида келиб чиқадиган низолар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ҳал қилинади.

23. Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирлари учун ажратилган маблағлардан мақсадли фойдаланиш Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан назорат қилинади.

Ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш тадбирлари учун ажратилган маблағларнинг мақсадиз ишлатилиши қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавобгарликка сабаб бўлади.

24. Мазкур Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2024 йил 19 августдаги 515-сон қарорига
2-ИЛОВА

**Вазирлар Маҳкамасининг «Қишлоқ хўжалигида
фойдаланилмаётган ерларни фойдаланишга киритиша
ирригация ва мелиорация объектларини қуриш ва реконструкция
қилиш билан боғлиқ харажатларни қоплаб бериш тартиби
тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2020 йил 24 февралдаги
109-сон қарорига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар**

1. Қўйидаги мазмундаги 1¹-банд билан тўлдирилсин:
«1¹. Қўйидагилар:

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва туманлар (шахарлар) ҳокимлеклари — ҳар календарь йилнинг 1 марта қадар ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича ирригация-мелиорация тадбирларини ўз маблағи ҳисобидан амалга ошириш истагида бўлган талабгорларнинг манзилли рўйхатини шакллантириш ва ижросини таъминлашга;

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги — ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича ирригация-мелиорация тадбирларини ўз маблағи ҳисобидан амалга оширган талабгорларнинг тижорат банкларида ҳисобваракларига белгиланган субсидиялар ўтказиб берилишига;

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги — янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонлари бўйича мониторинг юритиш, шунингдек, ушбу ер майдонларидан самарали фойдаланишини ташкил этиш ҳамда белгиланган имтиёзлар татбик қилинишига;

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги — ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетининг параметрларида ер майдонларини янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритиш бўйича ирригация-мелиорация тадбирларини амалга ошириш харажатларининг бир қисмини қоплаш учун субсидияларни назарда тутиш ҳамда белгиланган тартибда тегишли вазирлик ва идораларга ўтказиб беришга масъулдирлар».

2. Иловада:

а) 1-банд «қишлоқ хўжалигида фойдаланилмаётган ерларни» сўзларидан кейин «янгидан ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалигида қайта» сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 2-банд қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«2. Ушбу Низом қоидалари 2024 йилдан бошлаб янгидан ўзлаштирилган ва қишлоқ хўжалигида қайта фойдаланишга киритилган ер майдонларида ирригация-мелиорация объектларини таъмирлаш-тиклаш, реконструкция қилиш ҳамда қуриш ишларини ўз маблағи ҳисобидан амалга оширган талабгорларга нисбатан татбик этилади».

Вазирлар Маҳкамасининг
2024 йил 19 августдаги 515-сон қарорига
3-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини
йўқотган деб ҳисобланётган қарорлари
РЎЙХАТИ**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Томчилатиб суфориш тизимини ва сувни тежайдиган бошқа суфориш технологияларини жорий этиш ва молиялаштиришни самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2013 йил 21 июн даги 176-сон қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг ««Ўзмелиомашлизинг» давлат унитар корхонасининг уставини тасдиқлаш тўғрисида» 2017 йил 5 декабрдаги 969-сон қарорига 2-илованинг 2-банди.

3. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қишлоқ ва сув хўжалиги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПФ-5418-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ-3671-сон қарори, «Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ-3672-сон қарори)» 2018 йил 7 декабрдаги 995-сон қарорига 1-илованинг 73-банди.

4. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мехнатга ҳақ тўлаш, пенсиялар ва бошқа тўловлар миқдорларини аниqlаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида» 2019 йил 21 майдаги ПФ-5723-сон Фармони)» 2019 йил 28 декабрдаги 1046-сон қарорига илованинг 124-банди.

5. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Бюрократик тўсиқларни янада қисқартириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятига замонавий бошқарув тамоилиларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 9 декабрдаги ПҚ-4546-сон қарори)» 2020 йил 7 июлдаги 429-сон қарорига 1-илованинг 19-банди.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**

299 **Давлат мактабгача таълим ташкилотлари директори лавозимига номзодларни менежерлик ўқув курсларида ўқитиш, уларга менежерлик сертификатини бериш ва номзодларни лавозимга тайинлаш тизимини жорий этиш тўғрисида***

Давлат мактабгача таълим ташкилотлари директори лавозимига юқори малакали, замонавий бошқарув кўнгилмаларига эга бўлган кадрларни тайинлаш тизимини жорий этиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилиди**:

1. 2025 йил 1 январдан бошлаб Мактабгача таълим ташкилотлари директори ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтида Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги тизимидағи давлат мактабгача таълим ташкилоти (кейинги ўринларда — ташкилот) директори лавозимига номзодларни менежерлик ўқув курсларида ўқитиш ва уларга маҳсус портал орқали менежерлик сертификатини электрон шаклда бериш тизими жорий қилинсин.

2. Белгилансанки:

а) 2025 йил 1 сентябрдан бошлаб менежерлик сертификатига эга бўлган ташкилот директорига ушбу сертификатнинг амал қилиш муддати давомида лавозим маошига ҳар ойлик 30 фоиз қўшимча устамалар тўланади;

б) Қорақалпоғистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар мактабгача ва мактаб таълими бошқармалари томонидан менежерлик сертификатига эга бўлган номзодлар орасидан ташкилот директори лавозимига номзодлар захираси шакллантирилади.

Бунда ташкилот директори вакант лавозимларига номзодлар факат сертификати мавжуд бўлган ва ушбу кичик банднинг биринчи хатбошисида кўрсатилган номзодлар захирасига киритилган кадрлар орасидан танлаб олинади;

в) Кори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти мактабгача ва умумий ўрта таълим ташкилотлари директори лавозимига номзодлар учун тарбия жараёнларини самарали бошқариш бўйича контент материалларини ишлаб чиқишида кўмаклашади.

3. Қўйидагиларни назарда тутувчи Давлат мактабгача таълим ташкилотлари директори лавозимига номзодларни менежерлик ўқув курсларида ўқитиш ва уларга менежерлик сертификатини бериш тартиби тўғрисидаги низом 1-оловага мувофиқ тасдиқлансин:

менежерлик ўқув курсини ташкил этиш тартиби;

номзодларга сертификат бериш учун якуний синовларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби.

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 августда эълон қилинган.

4. Кори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институтининг тузилмаси 2-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

5. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг З-иловага* мувофиқ айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

6. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳукуқий ҳужжатларни икки ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштиурсин.

7. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси мактабгача ва мактаб таълими вазири Х.У. Умарова зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 27 август,
531-сон

* 2-3-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Вазирлар Мажкамасининг
2024 йил 27 августдаги 531-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Давлат мактабгача таълим ташкилотлари директори
лавозимига номзодларни менежерлик ўқув курсларида
ўқитиш ва уларга менежерлик сертификатини бериш
тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги (кейинги ўринларда — Вазирлик) тизимида давлат мактабгача таълим ташкилотлари (кейинги ўринларда — ташкилот) директори лавозимига номзодларни (кейинги ўринларда — номзодлар) менежерлик ўқув курсларида ўқитиш ва уларга менежерлик сертификатини бериш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низом асосида менежерлик сертификатига эга бўлган номзодларга ташкилот директори лавозими учун танловда иштирок этиш хукуки берилади.

Ташкилотларда фаолият юритаётган директорлар (кейинги ўринларда — директорлар) ҳар 5 йилда бир маротаба ушбу Низом талабларига мувофиқ менежерлик сертификатини олиши талаб этилади.

3. Номзодларнинг бошқарув соҳасига оид билим ва кўниммаларини баҳолаш ҳамда баҳолаш натижаси бўйича давлат намунасидаги менежерлик сертификати электрон ракамли имзо билан тасдиқланган ва QR-код қўйилган ҳолда электрон шаклда берилади.

4. Мазкур Низом талаблари нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари директори лавозимларига нисбатан татбиқ этилмайди.

5. Ушбу Низомда қўйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

менежерлик ўқув курси (кейинги ўринларда — ўқув курси) — номзодларни тайёрлаш учун тасдиқланган ўқув режаси ва дастурлари асосида ишлаб чиқилган машғулотлар тизими;

менежерлик сертификати (кейинги ўринларда — сертификат) — ташкилот директори лавозимида ишлаш хуқуқини берувчи ҳужжат;

максус портал — Вазирликнинг номзодларни рўйхатдан ўтказиш, ўқув курси талаблари ва муддатлари ҳақида ҳамда ўқув курси билан боғлиқ бошқа маълумотлар жойлаштириладиган электрон дастурний тизими;

ўқув режаси — ўқув курсида ўқитиладиган ўқув модуллари, уларга ажратилган соатлар, ўқитиш муддатлари ва шакллари белгилаб берилган ҳужжат;

ўқув дастури — ҳар бир ўқув мавзусининг мазмуни, машғулот шакли, тингловчилар томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар ҳажми белгилаб берилган ҳужжат;

якуний синов — ўқув курси охирида ўтказиладиган якуний назорат, амалий топшириклар ижросини баҳолаш жараёни.

2-боб. Ўқув курсларини ташкил этиш

6. Ўқув курслари ушбу Низомга 1-иловадаги* схемага мувофиқ ташкил этилади.

7. Ўқув курслари Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти (кейинги ўринларда — Институт) томонидан ташкил этилади.

8. Ўқув курслари тўғрисидаги маълумотлар маҳсус порталга жойлаштирилади.

9. Номзодлар маҳсус портал орқали электрон шаклда рўйхатдан ўтади ҳамда ўқув курсида ўқиш учун ариза топширади.

Бунда номзодлар камида бакалавр даражасига ҳамда ташкилот директорлари учун белгиланган малака талабларига мувофиқ бўлиши лозим.

10. Таълимда менежмент ёки таълимда бошқарув мутахассислиги бўйича магистр даражасига эга бўлган номзодлар ўқув курсида ўқимасдан сертификат олиш бўйича якуний синов жараёнларида иштирок этишлари мумкин.

Таълимда менежмент ёки таълимда бошқарув ихтисослиги бўйича илмий даражага эга бўлган номзодлар учун сертификат уларнинг аризасига асосан тўғридан-тўғри берилади.

11. Аризалар календарь йил давомида узлуксиз қабул қилинади.

12. Ўқув курсларига жалб этилган номзодлар рўйхати уларнинг аризалири асосида Институт томонидан шакллантирилади ҳамда тасдиқланади.

13. Номзодлар ўқув курсларида улар билан Институт ўртасида тузилган шартнома асосида ўқитилади ҳамда баҳоланади.

14. Ўқув курслари 20 — 30 нафар тингловчилардан иборат академик гурухларда ташкил этилади.

Тингловчилар контингенти етарли бўлмаган тақдирда, шу жумладан, рус тилида дарс ўтиладиган гурухларда тингловчилар сони, истисно тариқасида, камида 15 нафар этиб белгиланиши мумкин.

15. Ўқув курсларида ўқиш талабини билдирган номзодлар ва директорлар хоҳиш ҳамда истакларидан келиб чиқсан ҳолда, навбатдан ташқари ўқув курслари ташкил этилиши мумкин.

Навбатдан ташқари ўқув курсида ўқитиш тўлов миқдори Институт томонидан белгиланади ва бунда ўқиш талабини билдирганлар номзод сифатида ўқув курсларида иштирок этади.

16. Директорларнинг ўқув курсларида иштирок этиши бўйича режа-таксимот хар йили 1 декабрга қадар Институт томонидан шакллантирилади ҳамда Вазирлик томонидан тасдиқланади.

17. Ўқув курсларининг ўқув режаси ва дастурлари Институт томонидан ишлаб чиқилади, Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги хузуридаги Педагогик маҳорат ва халқаро баҳолаш илмий-амалий маркази томонидан экспертизадан ўтказилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси мактабгача ва мактаб таълими вазирининг бўйруғи билан тасдиқланади.

18. Ўқув курсларининг давомийлиги 144 соатни ташкил қилиб, бир ой

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

давомида ўқитилади. Курсдаги аудитория машғулотларининг энг юкори хажми ҳафтасига 36 соат этиб белгиланади.

19. Ўқув машғулотлари назарий, амалий ва ташкилот амалиётидан иборат бўлади. Назарий ва амалий машғулотлар Институтда, ташкилот амалиёти эса ташкилот ҳамда таълим бошқарувини амалга оширадиган ташкилотларда ўтказилади.

20. Номзодларнинг ихтиёрий танлови асосида ўқув курслари ишлаб чиқаришдан ажралган ёки ажралмаган (масофавий, онлайн) ҳолда ташкил этилиши мумкин.

21. Номзод қўйидаги ҳолатларда ўқув курсидан четлаштирилади:

ўқув интизомини ва ички тартиб-қоидаларни бузганлиги учун;

ўқув курсидаги дарс машғулотларини узрли (касаллиги, давлат ёки жамоат вазифаларини бажарганлиги, яқин қариндошининг вафоти) сабаблариз 18 соат ва ундан ортиқ қолдиргани учун;

саломатлиги туфайли (тиббий комиссия маълумотномаси асосида);

номзодга нисбатан суд ҳукми асосида;

вафот этганлиги сабабли.

22. Ўқув курсларини муваффақиятли тугатган номзодлар сертификат бериш бўйича якуний синовларга қўйилади.

3-боб. Ўқув курсларини молиялаштириш

23. Ўқув курсларида бир нафар номзод учун ўқитиш харажатларининг тўлов микдори асосланган калькуляциясига мувофиқ Вазирлик билан келишилган ҳолда Институт томонидан тасдиқланади.

Бунда молия йили давомида қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ иш хақи микдорлари ва шартлари ўзгарган ҳолларда, бир нафар номзод учун тўлов микдори қайта кўриб чиқилиши мумкин.

24. Тасдиқланган ўқитиш харажатлари учун тўлов микдори номзодлардан ундирилади ва ушбу маблағлар Институтнинг бюджетдан ташқари жамғармасига йўналтирилади.

Ишдан ажралган ҳолда ўқув курсларда иштирок этиш учун номзодларнинг ўқиш даврида уларнинг иш хақи микдорлари сақлаб қолинмайди ва сафар харажатлари қоплаб берилмайди.

25. Режа-тақсимотга киритилган директорларни ўқитиш харажатлари Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчи сифатида Вазирликка ажратилган бюджет маблағлари ҳисобидан Институтнинг харажатлар сметасида назарда тутилган ҳолда амалга оширилади.

26. Директорларнинг ўқув курсига жалб этиладиган профессор-ўқитувчиларнинг сонини белгилашда, Педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий марказлари учун белгиланган бир нафар ўқитувчи ҳисобига тўғри келадиган тингловчилар сони нисбатининг чекланган нормативлари қўлланилади.

27. Директорларнинг ўқиш даврида уларнинг асосий иш жойи бўйича лавозими ва амалдаги ўртacha иш хақи микдорлари сақлаб қолинади.

28. Ишдан ажралган ҳолда ўқув курсларида иштирок этиш учун юборилган директорлар учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда хизмат сафари билан бөлік харажатлар уларнинг асосий иш жойидан қопланади.

29. Директорлар биринчи марта менежерлик сертификатини олгандан сўнг кейинги менежерлик ўқув курсларида ўқиш ва менежерлик сертификатини олишда номзод сифатида иштирок этади.

Бунда 2025 йил 1 январга қадар директор лавозимида ишлаб келаётган ходимларни ўқитиш ва сертификат олиш билан бөлік харажатлар Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади.

4-боб. Номзодларга сертификат бериш учун якуний синовларни ташкил этиш ва ўтказиш

30. Номзодлар учун якуний синовларни ўтказиш жадвалларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш, синовларни ўтказиш, уларнинг натижаларини эълон қилиш Институт томонидан амалга оширилади.

31. Якуний синовларни ўтказиш санаси синовлар ўтказиладиган кундан камида етти кун олдин эълон қилинади.

Институт якуний синов ўтказиладиган сана ва жой тўғрисидаги маълумотни маҳсус портал орқали номзоднинг шахсий кабинетига юборади.

32. Агар номзод турли сабабларга кўра якуний синовда иштирок эта олмайдиган бўлса, Институтга якуний синов ўтказиладиган кундан камида уч кун олдин ёзма ёки электрон шаклда мурожаат этиши лозим.

Узрли сабабга кўра (касаллиги ёки оила аъзоларининг вафот этганлигини тасдиқловчи ҳужжатни тақдим этганда) якуний синовларда қатнаша олмаган номзод якуний синов бошланган кундан бошлаб беш иш куни мобайнида ушбу ҳолатни тасдиқловчи ҳужжатларни Институтга бевосита ёки электрон шаклда тақдим этиши лозим.

Бунда номзоднинг навбатдаги якуний синовга киритилиши таъминланади.

33. Якуний синов топшириқлари Вазирлик томонидан тасдиқланган дастурлар асосида Институт томонидан етакчи олимлар ва малакали мутахассислар, шунингдек, нодавлат ташкилотлар вакилларини шартнома асосида жалб қилган ҳолда ишлаб чиқилади.

34. Ишлаб чиқилган якуний синов топшириқлари асосида Институт томонидан якуний тест ва кейс саволлари базаси шакллантирилади.

35. Якуний синовлар санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, техника ва ёнғин хавфсизлиги қоидаларига қатъий риоя қилган ҳолда ўтказилади.

36. Номзодлар учун якуний синовлар уларнинг бевосита иштирокида маҳсус жиҳозланган хоналарда электрон шаклда ўтказилади.

37. Якуний синовлар 25 та тест, кейс ҳамда амалий топшириқлардан иборат бўлади.

38. Тест синовлари учун 50 балл, кейс топшириқлари учун 10 балл ва амалий топшириқлар учун 40 балл (жами 100 балл) берилади.

70 балл ва ундан юқори натижа кўрсатган номзодлар якуний синовни муваффақиятли топширган ҳисобланади ва уларга сертификат берилади. Бунда номзодлар ҳар бир йўналиш бўйича камидаги 50 фоиз балл йиғиши талаб этилади.

Тест синовлари ва кейс топшириқларини бажариш учун жами 80 дақика вакт берилади.

Амалий топшириқлар номзод томонидан ижодий иш шаклида тақдим этилади ва имтиҳон комиссияси томонидан баҳоланади.

Амалий топшириқларни баҳолаш ва имтиҳон комиссиясини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби Вазирлик томонидан белгиланади.

39. Белгиланган баллни тўплай олмаган номзодлар бир йил ичидаги навбатдаги битта якуний синовда иштирок этиш хуқуқига эга.

Биринчи марта якуний синовдан ўта олмаган директорлар икки ой ичидаги бир марта якуний синовда иштирок этиши мумкин. Ушбу муддат ичидаги якуний синовда иштирок этмаган ёки иккинчи якуний синовда ҳам белгиланган баллни тўплай олмаган директорлар белгиланган тартибда лавозимидан озод этилади.

Номзодлар ва директорлар навбатдаги якуний синовда иштирок этиш учун маҳсус портал орқали электрон шаклда ариза беради.

Навбатдаги якуний синовда иштирок этиш учун номзодлар ва директорлардан базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдорида тўлов ундирилади.

Иккинчи марта ҳам якуний синовларда белгиланган баллни тўплай олмаган номзодлар қайта ўқув курсида ўқиганидан сўнг якуний синовларда иштирок этиш имкониятига эга бўлади.

40. Номзодлар якуний синовларни топширишга паспорт (идентификация ID-картаси) ёки шахсни тасдиқловчи бошқа хужжат асосида қўйилади.

Паспорти (идентификация ID-картаси) ёки шахсни тасдиқловчи бошқа хужжати бўлмаган ёхуд тест синовига кечиккан номзодлар тест синовига келмаган деб ҳисобланадилар ва навбатдаги тест синовини топширишга рухсат этилган номзодлар рўйхатига ўтказилади.

41. Номзод узрсиз сабабга кўра якуний синовда иштирок этмаган бўлса, у якуний синовдан ўтмаган ҳисобланади.

42. Якуний синовлар жараёнида холис кузатувчиларнинг иштирок этишига рухсат берилади.

Бунда холис кузатувчилар сифатида Вазирлик тизимидағи масъул ходимлар, нодавлат ташкилотлар ҳамда оммавий ахборот воситалари вакиллари иштирок этишлари мумкин.

43. Якуний синов бошланишидан олдин Институтнинг масъул ходими қўйидагиларни амалга ошириши лозим:

номзодларни синовларни ўтказиш тартиби ва синовнинг давом этиши вакти хақида хабардор қилиш;

номзодлар томонидан алоқа воситаларини ўчириш ва топширишини таъминлаш;

синов жараёнида фойдаланиш тақиқланган барча предметларни ўз ихтиёрлари билан топширишини таклиф этиш;

синов ўтказилаётган түлиқ вақт давомида белгиланган тартибларга қатъий риоя қилинишини таъминлаш;

синовни ўтказиш тартибини бузган номзодларни тегишли далолатнома тузган ҳолда синовдан четлаштириш.

44. Якуний синов вақтида норматив-хуқуқий ҳужжатлардан, маълумот ва маҳсус адабиётдан фойдаланиш, сўзлашиш, ўзаро ахборот алмашиш, алоқа воситалардан фойдаланиш, синов материаллари ёки уларнинг мазмунига оид бўлган маълумотларни олиб чиқиш тақиқланади.

Мазкур талабларни бузган номзодлар синовни топширмаган деб ҳисобланади ва уларнинг кўрсатган натижалари баҳоланмайди.

45. Якуний синовни ўтказиш жараёни видеоёзувда қайд қилинади. Видеоёзув Институтда бир йил давомида сақланади.

46. Номзодларнинг якуний синов натижалари синовлар ўтказилган куни маҳсус портал орқали эълон қилинади.

47. Сертификат 5 йил давомида амал қиласи. Номзодлар сертификатнинг амал қилиш муддати давомида амал қилиш муддатини узайтириш мақсадида қайта менежерлик сертификатини олиш бўйича якуний синовларда иштирок этишлари мумкин.

48. Институт менежерлик сертификатларининг электрон ҳисобини юритиши юзасидан жавобгар ҳисобланади.

49. Якуний тест синовлари ва кейс топшириқлари базасини шакллантириш, синовларни ташкил этиш ва ўтказиш Вазирлик белгилайдиган тизим ташкилоти томонидан амалга оширилиши мумкин.

Бунда якуний тест синовлари ва кейс топшириқларини ўтказиш учун Институт томонидан Вазирлик томонидан белгиланадиган тизим ташкилотига якуний синовларда иштирок этган ҳар бир номзод учун базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдорида маблағлар ўтказилади.

5-боб. Якуний синов натижалари юзасидан апелляция бериш

50. Якуний синов натижаларидан норози бўлган номзодлар натижалар эълон қилинган вақтдан бошлаб беш иш куни мобайнида апелляция комиссиясига маҳсус портал орқали электрон шаклда ариза (шикоят) беришлари мумкин.

51. Апелляция комиссияси якуний синов бошлангандан кейин икки кун ичида Институт ректорининг буйруғи асосида 5 ёки 7 нафардан иборат таркибда тузилади.

52. Апелляция комиссиясининг таркиби ва иш тартиби апелляция комиссиясини ташкил этиш тўғрисидаги буйруқда белгиланади.

Апелляция комиссиясининг мурожаатларни масофадан туриб онлайн тарзда кўриб чиқиш муддатлари тўғрисидаги маълумотлар маҳсус порталга жойлаштирилади.

53. Ариза (шикоят) рўйхатга олингандан сўнг икки ҳафта мобайнида апелляция натижаси маҳсус портал орқали ариза (шикоят) берувчига хабардор қилинади.

54. Апелляция комиссияси таркибига якуний синов жараёнларини ўтка-зишда иштирок этган шахслар киритилмайды.

55. Апелляция комиссияси муаммоли ҳолатларга аниқлик киритиш мақ-садида жамоатчилик асосида малакали мутахассисларни жалб этиши мум-кин.

56. Апелляция комиссияси йиғилишида комиссия аъзоларининг учдан икки қисми иштирок этса, унинг қабул қилган қарори қонуний кучга эга бўлади.

57. Апелляция комиссияси томонидан номзоднинг мурожаати кўриб чиқилгандан сўнг хуросалаш жараёнида бевосита ёки масофадан туриб он-лайн тарзда иштирок этиши мумкин.

58. Апелляцияни кўриб чиқиши натижаси бўйича апелляция комиссияси қуидаги қарорлардан бирини қабул қилади:

тўпланган балларни ўзгаришсиз қолдириш;

тўпланган балларни ўзгартириш;

якуний синовни қайта ўтказиш.

59. Апелляция комиссияси қарори нусхаси ариза (шикоят) берувчига апелляция комиссияси қарори чиқкан кундан эътиборан уч кун муддатда маҳсус портал орқали тақдим этилади.

60. Такрорий апелляцияга йўл қўйилмайди.

Номзодлар апелляция комиссиясининг қарори юзасидан қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда судга шикоят қилиши мумкин.

6-боб. Сертификатни бериш тартиби

61. Якуний синовда ижобий натижага эришган номзодга якуний синов натижалари эълон қилинган кундан бошлаб бир ҳафта мобайнида Институт ректорининг буйруғи асосида мазкур Низомга 2-иловага* мувофиқ шаклда сертификат берилади.

Номзод сертификатни шахсий кабинети орқали юклаб олиши мумкин.

62. Сертификатлар реестри Институт томонидан маҳсус портал орқали юритилади.

Сертификатлар реестрида қуидагилар кўрсатилиши лозим:

номзоднинг фамилияси, исми, отасининг исми;

Институтнинг сертификат бериш тўғрисидаги буйругининг санаси ва тартиб рақами;

ҳисобга олиш серияси ва тартиб рақами;

берилган санаси;

амал қилиш муддати.

63. Сертификатнинг ҳақиқийлиги тўғрисидаги маълумотларни маҳсус портал орқали текшириш имконияти яратилади.

7-боб. Номзодларни саралаш ва лавозимга тайинлаш

64. Қорақалпоғистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими ва-

* 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

зирлиги, вилоятлар ва Тошкент шахар мактабгача ва мактаб таълими бошқармалари (кейинги ўринларда — худудий бошқармалар) ташкилот директори вакант лавозими учун «Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий аппарат комплексидан фойдаланган ҳолда беш иш куни муддатга эълон беради.

65. Ташкилот директори вакант лавозимига очиқ танлов учун келиб тушган номзодларнинг хужжатлари худудий бошқармалар томонидан икки иш куни давомида кўриб чиқилади ва ташкилот директори вакант лавозимига тақдим этилган номзодларнинг хужжатларини тегишли ташкилотнинг Кузатув кенгашига тақдим этади.

66. Кузатув кенгаши икки иш куни давомида ташкилот директори вакант лавозимига тақдим этилган номзодларни сайлаш юзасидан йиғилиш ўтказади ва бир нафар номзодни овоз бериш йўли билан сайлайди.

Йиғилиш якуни бўйича баённома расмийлаштирилади ва баённома ҳамда номзоднинг хужжатлари тегишли худудий бошқармага етказилади.

67. Худудий бошқарма номзоднинг хужжатларини ўрганиш натижаси бўйича икки иш куни давомида номзод билан меҳнат шартномасини тузади ҳамда ташкилот директори лавозимига тайинлаш тўғрисидаги буйруқни расмийлаштиради.

8-боб. Якупловчи қоидалар

68. Институт томонидан ариза берувчилар тўғрисидаги шахсий маълумотларнинг махфийлиги таъминланади. Қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда ваколатли давлат органлари томонидан расмий мурожаат бўлган тақдирда, ариза берувчилар тўғрисидаги маълумотлар тақдим этилади.

69. Мазкур Низомни қўллашда юзага келадиган низолар қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

70. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик хужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMoya MILLIY
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

300 “O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda qo'shimcha va yordamchi funksiyalarini autsorsing shartlarida tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3367-1*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” va 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sun “Ahолига сифатли ижтимоий хизмат ва юрдам ко'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari hamda 2023-yil 27-dekabrdagi PQ-410-sun “O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 7-maydagi 76-ICh-sun “O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda qo'shimcha va yordamchi funksiyalarini autsorsing shartlarida tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 3367, 2022-yil 10-may) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2022-y., 10/22/3367/0403-sun) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

M. OLLOYOROV

Toshkent sh.,
2024-yil 22-iyul,
22024/2-sun

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 21-avgustda e'lon qilingan.

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2024-yil 19-iyul

Sog‘liqni saqlash vaziri

A. XUDAYAROV

2024-yil 16-iyul

Savdo-sanoat palatasi raisi

D. VAXABOV

2024-yil 15-iyul

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy
agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldaggi
22024/2-son buyrug‘iga
ILOVA

**“O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni
rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda
qo‘srimcha va yordamchi funksiyalarini autsorsing shartlarida
tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi
buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Buyruqning nomi va 1-banddagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. Nizomda:

1) nomidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) tizimidagi Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari va “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida, Nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, uning hududiy markazlarida, Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriyalarda hamda Odam savdosи jabridiydalariga yordam berish bo‘yicha respublika reabilitatsiya markazida (bundan buyon matnda tibbiy-ijtimoiy muassasa deb yuritiladi) mazkur Nizomga 1-ilovada nazarda tutilgan qo‘srimcha va yordamchi funksiyalarini (bundan buyon matnda xizmatlar deb yuritiladi) autsorsing shartlarida tashkil etish tartibini belgilaydi.”;

3) 1 — 7-ilovalarning ilova belgisidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4) 1-ilovaning nomidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

301 O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
20-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1829-4*

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi hamda "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving 2008-yil 15-martdagи 8/8-sон qarori (ro'yxat raqami 1829, 2008-yil 18-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 24-25-son, 247-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.
2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.
3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi

M. NURMURATOV

Toshkent sh.,
2024-yil 24-iyul,
23/12-son

Kelishildi:

*Iqtisodiyot va moliya
vazirining birinchi o'rinnbosari*

I. NORQULOV

2024-yil 24-iyul

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 21-avgustda e'lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi
 Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil
 24-iyuldaggi 23/12-son qaroriga
 ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bilan
 REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
 kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘s himchalar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bilan
 REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibini belgilaydi.”.

2. 2-banddagi “molivayi broker sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi” degan so‘zlar
 “qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat yuritish huquqini olgan
 investitsiya vositachisi va O‘zRVB a’zosi hisoblangan” degan so‘zlar bilan
 almashtirilsin.

3. 3-bandda:

birinchi va ikkinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat qimmatli qog‘ozlari (keyingi o‘rinlarda — DQQ) — O‘zbekiston
 Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat g‘aznachilik obligatsiyalari, xalqaro
 obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi
 o‘rinlarda — Markaziy bank) obligatsiyalari;”;

uchinchi xatboshidan “aynan shu chiqarilishdagi va miqdordagi” degan
 so‘zlar chiqarib tashlansin;

o‘n to‘rtinchchi xatboshi “REPO bitimining tomonlari kelishivi asosida” degan
 so‘zlardan keyin “diskontni inobatga olgan holda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

yigirma to‘qqizinchchi xatboshidagi “qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘lari”
 degan so‘zlar “DQQ va pul mablag‘laridagi pozitsiyalar” degan so‘zlar bilan
 almashtirilsin.

4. 5-bandda:

“b” kichik banddagi “10” raqami “5” raqami bilan almashtirilsin;

to‘rtinchchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ta’minotga turli chiqarilishdagi DQQlarni DQQ savati orqali kiritish
 mumkin.”;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“DQQ savati REPO bitimi tarkibiga kiritilishi mumkin bo‘lgan har xil
 chiqarilishlardagi DQQ to‘plamidan iborat ro‘yxat bo‘lib, uning tarkibidagi
 DQQ chiqarilishlari REPO bitimining ikkinchi qismini bajarish sanasiga qadar
 DQQning boshqa chiqarilishlari bilan REPO bitimi tomonlarining kelishuviga
 asosan ayrboshlanishi mumkin. Bunda, DQQning har bir ayrboshlanishi
 natijasida vujudga kelgan ta’midot qiymati REPO bitimining avvalgi shartlari
 bilan belgilangan ta’midot qiymatidan kam bo‘lmasligi lozim.”;

5. 7-bandning birinchi xatboshisidan “Savdo tizimi tomonidan,” degan so‘zlar
 chiqarib tashlansin.

6. 8-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“REPO muddati davomida ta’minot tarkibidagi qimmatli qog’ozlar bo‘yicha kupon (foiz) daromadlari emitent tomonidan dastlabki sotib oluvchiga to‘lab beriladi. Bunda, REPO summasi to‘lov amalga oshirilgan kunda ushbu to‘langan kupon (foiz) daromadi miqdoriga kamaytiriladi.”.

7. 11-bandda:

ikkinchi xatboshidan “(avtomatik)” degan so‘z chiqarib tashlansin; uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Dilerning o‘zi tomonidan REPO stavkasi ko‘rsatiladigan raqobatli buyurtmalardan farqli ravishda, raqobatsiz buyurtmalar Savdo tizimiga buyurtma berilgan vaqtida birja qoidalariqa muvofiq avtomatik hisoblanadigan REPO stavkasi bo‘yicha kiritiladi.”.

8. 12-bandda:

“v” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) buyurtma bergen diler (investor)ning nomi va ta’minotdagi DQQning identifikasiya raqami yoki xalqaro kodi;”;

“e” kichik banddan “tizimdan tashqaridagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

9. 18-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

10. 19 — 21-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. REPO bitimlari ta’minoti blokirovka qilingan yoki ta’minoti blokirovka qilinmagan holda tuzilishi mumkin. Ta’minoti blokirovka qilingan REPO bitimi buyurtmada tegishli shart ko‘rsatilgan taqdirdagina tuziladi.

O‘zRVBning birja guvohnomasi REPO bitimining tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib, uning standart shakli birja qoidalariqa muvofiq tasdiqlanadi.

20. Savdo tiziminining har bir REPO bitimi bo‘yicha dastlabki sotuvchi va dastlabki sotib oluvchidan oladigan vositachilik haqi birja qoidalariqa muvofiq undiriladi.

21. REPO bitimlari bo‘yicha dilerning majburiyatları ijrosini ta’minlash O‘zRVB tomonidan uning Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag‘idan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish orqali amalga oshiriladi.”.

11. 22, 23 va 27-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

12. 31-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

13. 34-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

14. 38-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

15. 49-bandning to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ta’minotdagi DQQ chiqarishlari va/yoki DQQning miqdori;”.

16. 58-bandning o‘n uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Amaldagi REPO bitimining ikkinchi qismi Savdo tizimida avtomatik ravishda shakllanadigan va xabarnomadagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan buyurtma-topshiriqlarni dilerlar tomonidan tasdiqlanishi orqali ijro etiladi.”.

17. 71-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“71. Ta’minotning sotilishi tegishli REPO bitimining ikkinchi qismi ijro etish sanasida yoki ijro etish sanasidan keyingi savdo kunidan boshlab Savdo tizimi tomonidan o‘tkaziladigan kunlik auksionlar shaklida amalga oshiriladi.

DQQning auksiondagи sotilish narxi birja qoidalariqa muvofiq belgilanadi.”.

18. 82 va 83-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“82. Markaziy bank tomonidan REPO bitimlari mazkur Nizomga hamda bank bilan tuziladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri REPO bitimi bo‘yicha Bosh bitimga muvofiq amalga oshiriladi.

83. Markaziy bank va banklar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri REPO bitimlari overnayt REPO va REPO auksionlari shaklida o‘tkaziladi. Bunda, REPO bitimlarini o‘tkazish tartibi va shartlari birja qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.”.

19. 85-bandning “b” kichik bandidagi “Kelishuvni” degan so‘z “Bosh bitimni” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

20. 87-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“87. REPO buyurtmasi mazkur Nizomning 12-bandida ko‘rsatilgan REPO bitimining barcha majburiy shartlarini o‘z ichiga olishi lozim.”.

21. 88-banddagи “Kelishuvning” degan so‘z “Bosh bitimning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

22. 89 — 92 hamda 94-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРИНИНГ
БУЙРУГИ

302 **Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тергов**
ҳибсоналарининг ички тартиб қоидаларининг 180-бан-
дига ўзгартириш киритиш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
23 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2456-7*

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 20 октябрдаги 550-сон «Никоҳ, оила ва фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш соҳасидаги норматив-хуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман**:

1. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2012 йил 29 декабрдаги 175-сон буйруги (рўйхат рақами 2456, 2013 йил 13 май) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 20-сон, 260-модда) билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тергов ҳибсоналарининг ички тартиб қоидаларининг 180-бандидаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 14 ноябрдаги 387-сон қарори билан тасдиқланган Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш қоидалари» деган сўзлар «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 20 октябрдаги 550-сон қарори билан тасдиқланган Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш қоидалари» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазир

П. БОБОЖНОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 9 август,
427-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 27 августда эълон қилинган.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ
БҮЙРУГИ

303 **Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида автомобиль**
ва темир йўл транспорт воситаларида божхона назорати
остидаги товарлар ташилганда юк бўлимларига махсус божхона
пломбалари қўйиш қоидаларига ўзгартериш ва қўшимчалар кири-
тиш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2904-4*

Ўзбекистон Республикаси Божхона кодексига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг 2017 йил 18 июлдаги 01-02/12-24-сон» Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида автомобиль ва темир йўл транспорт воситаларида божхона назорати остидаги товарлар ташилганда юк бўлимларига махсус божхона пломбалари қўйиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида»ги қарорга ўзгартеришлар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги қарорига (рўйхат рақами 2904, 2017 йил 27 июль) (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 30-сон, 755-модда) иловага мувофиқ ўзгартеришлар ва қўшимча киритилсин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси билан келишилган.
3. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазирнинг биринчи ўринбосари

И. НОРҚУЛОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 24 июль,
164-сон

Келишилган:

Ўзбекистон Савдо-саноат
палатаси раиси

Д. ВАХАБОВ

2024 йил 17 июль

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 августда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
24 июлдаги 164-сон буйруғига
ИЛОВА

**«Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида автомобиль
ва темир йўл транспорт воситаларида божхона назорати
остидаги товарлар ташилганда юк бўлимларига маҳсус божхона
пломбалари қўйиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида»ги қарорга
киритилаётган ўзгартиришлар ва қўшимча**

1. Қарорнинг номи ва 1-бандиндаги «маҳсус божхона пломбалари қўйиш» деган сўзлар «божхона пломбаларини қўллаш» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2. Қоидаларда:

1) номи ва муқаддимадаги «маҳсус божхона пломбалари қўйиш» деган сўзлар «божхона пломбаларини қўллаш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

2) 1-бандда:

учинчи хатбоши қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«жўнатувчи божхона пости — божхона назорати остидаги товарлар ортилган транспорт воситалари юк бўлимларига божхона пломбалари қўйган божхона пости;»;

тўртинчи хатбошидан «комплекси ёки» деган сўзлар чиқариб ташлансин;

3) 2-банддан «маҳсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

4) 2-бобнинг номи қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

**«2-боб. Транспорт воситаларининг товарлар ортилган юк
бўлимларига божхона пломбаларини қўллаш»;**

5) 3-банддан «маҳсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

6) 4-бандда:

биринчи ва тўртинчи хатбошилардан «маҳсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

қўйидаги мазмундаги саккизинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

«транспорт воситасининг юк бўлимига божхона пломбалари қўйилган бўлса;»;

саккизинчи хатбоши тўққизинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

тўққизинчи хатбошидан «маҳсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

7) 5-банд қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«5. Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудига олиб кирилаётган, божхона ҳудудидан олиб чиқилаётган ва транзит тартибида ҳаракатланаётган товарлар ортилган транспорт воситаларининг юк бўлимлари жўнатувчи божхона постларида божхона назорати ва расмийлаштирувидан ўтказилганидан сўнг, божхона пломбалари қўйилади, бундан мазкур Қоидаларнинг 4-бандида келтирилган ҳоллар мустасно.

«Экспорт» божхона режимида божхона юк декларацияси «яшил» ва «са-

риқ» йўлаклар орқали божхона расмийлаштирувидан ўтказилиб, товарлар Юкларни халқаро йўлларда ташиш дафтарчасини расмийлаштирилган ҳолда олиб чиқилаётганда, шунингдек юк жўнатувчилар ва (ёки) ташувчиларнинг талабига кўра божхона пломбалари чегара божхона постларида божхона орғани томонидан транспорт воситаларининг юк бўлимларига ўрнатилади.»;

8) 6-банддан «махсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

9) 8-бандда:

биринчи ва иккинчи хатбошилардан «махсус» деган сўз чиқариб ташлансин;

учинчи хатбошидаги «Махсус божхона пломбалари» деган сўзлар «Божхона пломбалари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

10) 9-банднинг иккинчи хатбошиси, 10-банднинг олтинчи хатбошиси, 11 ва 12-бандлардан «махсус»деган сўз чиқариб ташлансин.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ
БҮЙРУФИ

304 Дастлабки, даврий ва тўлиқ бўлмаган божхона юк декларацияларини расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
26 августдан рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3296-3*

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 1 февралдаги ЎРҚ-748-сон «Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги Конунiga мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг 2021 йил 31 марта даги 01-02/13-20-сон қарори (рўйхат рақами 3296, 2021 йил 4 май) (Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2021 й., 10/21/3296/0410-сон) билан тасдиқланган Дастлабки, даврий ва тўлиқ бўлмаган божхона юк декларацияларини расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга иловага мувофиқ ўзгартиришлар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси билан келишилган.

3. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазирнинг биринчи ўринбосари

И. НОРҚУЛОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 24 июль,
165-сон

Келишиилди:

Савдо-саноат палатаси раиси

Д. ВАХАБОВ

2024 йил 20 июль

* Ушбу буйруқ «Конунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 августда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
24 июлдаги 165-сон бўйруғига
ИЛОВА

**Дастлабки, даврий ва тўлиқ бўлмаган божхона юк
декларацияларини расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги
низомга киритилаётган ўзгартиришлар**

1. 5-банддан «товар юк жўнатувчи мамлакатда ортилганлигини тасдиқловчи» деган сўзлар чиқариб ташлансин.

2. 41-банднинг иккинчи хатбоши қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Агар ушбу Низомнинг 40-банди тўртинчи хатбошисида кўрсатиб ўтилган шартли чиқариб юборилган товарлар учун тақдим этилмаган мувофиқлик сертификатини ёки санитария-эпидемиология хулосасини олиш талаб этилса, ушбу товарлардан фойдаланиш, уларни учинчи шахсларга бериш, шу жумладан уларни сотиш ёки ўзга усуlda бошқа шахсга ўтказиш орқали бериш тақиқланади, мазкур товарларни олиб киришга доир чекловлар ушбу товарларнинг сифати ва хавфсизлиги текширилиши муносабати билан белгиланган ҳолларда эса ҳар қандай шаклда фойдаланиш (ишлатиш) тақиқланади.».

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMoya MILLIY
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

305 “O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
26-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3360-1*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari hamda 2023-yil 27-dekabrdagi PQ-410-son “O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 31-martdagi 52-ICH-son “O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 3360, 2022-yil 1-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022-y., 10/22/3360/0260-son) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Ijtimoiy himoya milliy
agentligi direktori**

M. OLLOYOROV

Toshkent sh.,
2024-yil 22-iyul,
2024/3-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2024-yil 19-iyul

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 28-avgustda e'lon qilingan.

*Sog‘liqni saqlash vaziri**A. XUDAYAROV*

2024-yil 16-iyul

O‘zbekiston Respublikasi
 Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy
 agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldaggi
 2024/3-son buyrug‘iga
 ILOVA

**“O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni
 rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda
 pullik xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash
 haqida”gi buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar**

1. Buyruqning nomi va 1-banddagи “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. Nizomda:

1) nomidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) tizimidagi Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari, “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida, Nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, uning hududiy markazlarida, Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarda (bundan buyon matnda tibbiy-ijtimoiy muassasa deb yuritiladi) pullik xizmat ko‘rsatish tartibini belgilaydi.”;

3) 1-bandning ikkinchi xatboshisidan “mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

4) 4-banddagи “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya sohasidagi ayrim tibbiy-ijtimoiy muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarni tasdiqlash haqida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmatlarning preyskurator narxlari Agentlik tomonidan tasdiqlanadi hamda ularga Agentlik tomonidan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.”;

6) 7-banddagи “tibbiy-ijtimoiy muassasa rahbari” degan so‘zlar “Agentlik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 11-bandda:

ikkinci xatboshi “statsionar sharoitda” degan so‘zlardan keyin “yoxud mobil shaklda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

uchinchchi xatboshi “statsionar sharoitda” degan so‘zlardan keyin “yoxud mobil shaklda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

8) 13-banddagи “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida” degan so‘zlar “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari va “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 15-banddagи “olinishi mumkin” degan so‘zlar “olinadi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 1-ilovada:

ilova belgisi va nomidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

1-bob quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“1-bob. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari va
“Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat
uylari, Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat
faxriylari uchun sanatoriyalarda ko‘rsatiladigan pullik
tibbiy-ijtimoiy xizmatlar**

1. Mutaxassis ko‘rigi;
2. Yotoq o‘rin bilan ta’minalash;
3. Oziq-ovqat, shu jumladan ratsional va parhez taomlar bilan ta’minalash;
4. Klinik tahlillar;
5. Bioximik tahlillar;
6. Funksional tashxislash;
7. Fizioterapevtik muolajalar;
8. Uqalash;
9. Davolash badantarbiyasi;
10. Dori yuborish (mushak orasiga, qon tomir ichiga, bo‘g‘im ichiga);
11. Dori vositalari;
12. Tibbiy buyumlar;
13. Xonalarni tozalash (yig‘ishtirish);
14. Kiyim-kechaklarini yuvish;
15. Gigiyyena tadbirlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
16. Sayrga, madaniy va ma’rifiy hamda sport tadbirlariga borishda hamrohlik qilish yoki olib borish;
17. Qarindosh va do‘sstar bilan yozishmalarda hamda aloqa o‘rnatishda ko‘maklashish;
18. Birinchi tibbiy yordam;
19. Yotoq yaralarni, tashqi jarohatlarni qayta ishslash va bog‘lash;
20. Tozalash klizmasini bajarish;
21. Palliativ yordam ko‘rsatish;
22. Uy sharoitida tibbiy parvarish qilish asoslarini o‘rgatish;

23. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish yakka tartibdagi dasturida belgilangan sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish;
 24. Konsertlar, tomoshalar, tarixiy qadamjolarga hamda ziyoratgohlarga ekskursiyalar uyushtirish;
 25. Davra suhbatlari, uchrashuvlar, treninglar o‘tkazish;
 26. Bayramlar va alohida muhim sanalarda har xil madaniy tadbirlar tashkil qilish;
 27. Shifokor ko‘rsatmasiga muvofiq tegishli sport anjomlaridan, vorkaut sport maydonchalarida mavjud inventarlardan foydalanishga ko‘maklashish;
 28. Davolovchi badantarbiya mashqlarini bajarishda ko‘maklashish;
 29. Qiziqishni inobatga olgan holda turli xil to‘garaklar tashkil etish.”;
- 11) 2-ilovaning ilova belgisidagi “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish” degan so‘zlar “Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

306 Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyotiga o'zgartirish kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
26-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3470-1*

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 30-oktabrdagi 17-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3470, 2023-yil 31-oktabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.11.2023-y., 10/23/3470/0816-son) bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyotining "Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar" yo'nalishidagi "Manfaatlar to'qnashuvi"ning "Tushunchasi" ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Normativ-huquqiy hujjatda shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyatlarni oldini olish choralar ko'rinishi lozim".

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq 2024-yil 6-dekabrdan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2024-yil 20-avgust,
19-mh-son

Kelishildi:

Direktor

A. BURXANOV

2024-yil 10-avgust

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 26-avgustda e'lon qilingan.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
СОЛИҚ ҚЎМИТАСИННИГ
ҚАРОРИ

307 «Кассир-операциячининг назорат-касса дафтари шакли ва уни тўлдириш тартибини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорнинг 1-иловасига ўзгартиришлар киритиш ҳақида^{*}

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2309-2*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 декабрдаги ПФ-269-сон «Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 1 июлдаги 370-сон «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги ва унинг тизимидағи ташкилотлари фаолиятини самарали йўлга қўйиш чоралари тўғрисида»ги қарорига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солик қўмитаси **қарор қиласди**:

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитасининг 2011 йил 14 декабрдаги 2011-40-сон «Кассир-операциячининг назорат-касса дафтари шакли ва уни тўлдириш тартибини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорининг (рўйхат рақами 2309, 2012 йил 9 январь) (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2012 й., 2-сон, 19-модда) 1-иловасида:

«давлат солик инспекциясида» деган сўзлар «солик инспекциясида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

«Ўзстандарт» агентлиги деган сўзлар «Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2. Мазкур қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Раис

Ш. КУДБИЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 15 август,
2024-15-сон

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 30 августда эълон қилинган.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

308 Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to'g'risida*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3553

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagি PF-5505-son "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi 469-son "Vazirliklar va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalariiga (ro'yxat raqami 2565, 2014-yil 28-fevral) muvofiq **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 46-moddasiga asosan ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan zarur o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi hamda ilgari qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi huquqiy normalarga zid bo'lsa yoxud yangi normativ-huquqiy hujjat bilan to'laligicha qamrab olingan yoki amalda o'z huquqiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa, lekin rasman o'z kuchini yo'qotgan deb topilmagan bo'lsa, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi lozimligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagи PF-5505-son Farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo'llashga ta'sir etmaydigan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan ilovaga muvofiq chiqarilsin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2024-yil 26-avgust,
24-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 27-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
adliya vazirining 2024-yil 26-avgustdagি
24-mh-son buyrug'iغا
ILOVA

**Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan
chiqarilayotgan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2002-yil 18-fevraldagи 588 va 35-son "Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 1113, 2002-yil 14-mart) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari axborotnomasi, 2002-yil, 5-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2008-yil 1-fevraldagи 2 va 5-son "Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 1113-1, 2008-yil 28-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 8-9-son, 52-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2013-yil 15-maydagи 38-Q va 46-son "Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 1113-2, 2013-yil 29-may) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 22-son, 292-modda).

4. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2002-yil 1-apreldagi 21-son "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1136, 2002-yil 8-may) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2002-y., 9-son).

5. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2003-yil 15-maydagи 49-son "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1136-1, 2003-yil 20-may) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son).

6. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2007-yil 25-iyundagi M-31-son "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1136-2, 2007-yil 28-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 31-32-son, 326-modda).

7. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

vazirining 2015-yil 8-apreldagi 10-B-son “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1136-3, 2015-yil 15-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 15-son, 189-modda).

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi direktorining 2007-yil 3-apreldagi 25-son “Foydali modelga, sanoat namunasiga hamda dori vositasi yoki pestitsidga taalluqli ixtiroga O‘zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish qoidalari”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1678, 2007-yil 5-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 19-20-son, 203-modda).

9. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi bosh direktorining 2011-yil 26-avgustdagli 30-son “Foydali modelga, sanoat namunasiga hamda dori vositasi yoki pestitsidga taalluqli ixtiroga O‘zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish qoidalari o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1678-1, 2011-yil 30-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 40-son, 422-modda).

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi direktorining 2008-yil 25-martdagli 13-son “Seleksiya yutug‘iga O‘zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish qoidalari tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1793, 2008-yil 16-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil, 16-son, 123-modda).

11. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi bosh direktorining 2011-yil 26-avgustdagli 32-son “Seleksiya yutug‘iga O‘zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish qoidalari o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1793-1, 2011-yil 30-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 40-son, 421-modda).

12. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Bosh direktorining 2017-yil 27-martdagli 17-son “Tovar belgisiga va xizmat ko‘rsatish belgisiga doir guvohnomaning hamda tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish qoidalarni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2873, 2017-yil 10-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 15-son, 260-modda).

13. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Bosh direktorining 2017-yil 6-noyabrdagi 21-son “Tovar belgisiga va xizmat ko‘rsatish belgisiga doir guvohnomaning hamda tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish qoidalarning 16-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2873-1, 2017-yil 16-noyabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.11.2017-y., 10/17/2873-1/0270-son).

14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining 2018-yil 9-iyuldagli 12-2018, 7-mh-son “Akademik litseylarda saralash imtihonlarini o‘tkazish, rasmiylashtirish va natijalarini e’lon qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3040, 2018-yil 17-iyul) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.07.2018-y., 10/18/3040/1525-son).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

309 Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
27-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1703-2*

O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida" 2021-yil 24-avgustdagi 538-sон qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bosh direktorining 2007-yil 17-iyuldagи 18-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1703, 2007-yil 13-avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 33-34-son, 350-modda) bilan tasdiqlangan Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo'yicha yo'riqnomaga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2024-yil 24-avgust,
23-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 29-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagি
23-mh-son buyrug'iغا
ILOVA

**Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni
davlat saqloviga topshirish bo'yicha yo'riqnomaga
kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. 1-bandda:

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Milliy arxiv fondi (keyingi o'rirlarda — MAF deb yuritiladi) — O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui;”;

sakkizinch xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"markaziy ekspert komissiyasi (keyingi o'rirlarda — MEK deb yuritiladi) — davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlarning, shu jumladan boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish va hujjatlarni arxiv saqloviga topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni olib boruvchi, davlat organi va tashkiloti hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishni amalgalash oshirish uchun tuziladigan, o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan doimiy faoliyat yurituvchi maslahat organi;”;

to'qqizinch xatboshidagi “ekspert-tekshiruv komissiyasi (ETK)/ekspert-tekshiruv uslubiy komissiyasi (ETUK)” degan so'zlar “ekspert-tekshiruv komissiyasi (keyingi o'rirlarda — ETK deb yuritiladi) /ekspert-tekshiruv uslubiy komissiyasi (keyingi o'rirlarda — ETUK deb yuritiladi)” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'ninchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"ekspert komissiyasi (keyingi o'rirlarda — EK deb yuritiladi) — davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida hujjatlarning, shu jumladan boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish va hujjatlarni arxiv saqloviga topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni olib boruvchi, o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan doimiy faoliyat yurituvchi maslahat organi.”.

2. Davlat tilidagi matnda 3-bobning nomidagi “qimmatini ekspertiza qilish” degan so'zlar “qimmatliliginu aniqlash ekspertizasini o'tkazish” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 12 va 26-bandlardan “O'zR” degan so'z chiqarib tashlansin.

4. Davlat tilidagi matnning 13-bandidagi “qimmatlilik ekspertizasi” va “qimmatlilik ekspertizasini” degan so'zlar tegishli ravishda “qimmatliliginu aniqlash ekspertizasi” va “qimmatliliginu aniqlash ekspertizasini” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5. Davlat tilidagi matnning 14-bandи birinchi xatboshisidagi “qimmatini ekspertiza qilish” degan so‘zlar “qimmatliliginи aniqlash ekspertizasini o‘tkazish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. Davlat tilidagi matnning 16-bandidagi “Qimmatlilik ekspertizasi” degan so‘zlar “Qimmatliliginи aniqlash ekspertizasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 19-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “qimmatlilik ekspertizasi” degan so‘zlar “axborot resurslarining qimmatliliginи aniqlash ekspertizasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

310 Elektron arxiv to'g'risidagi namunaviy nizomga o'zgartirish kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
27-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2317-1*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-avgustdag'i 538-son "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bosh direktorining 2011-yil 22-dekabrdagi 89-sون buyrug'i (ro'yxat raqami 2317, 2012-yil 23-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 3-4-son, 33-modda) bilan tasdiqlangan Elektron arxiv to'g'risidagi namunaviy nizomning 14-bandi uchinchi xatboshisidagi "tegishli davlat arxivining Ekspert tekshirish komissiyasiga" degan so'zlar "tegishli "O'zarxiv" agentligining markaziy ekspert-tekshirish komissiyasi, arxiv ishi hududiy boshqarmalarining ekspert-tekshirish komissiyasi va O'zbekiston milliy arxivlarining ekspert tekshirish-uslubiy komissiyasiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil 24-avgust,
20-mh-son

A. TASHKULOV

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 29-avgustda e'lon qilingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

311 Hujjatlarning qimmatlilagini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
27-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2347-2*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-avgustdag'i 538-son "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bosh direktorining 2012-yil 14-fevraldag'i 10-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2347, 2012-yil 29-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 13-sun, 150-modda) bilan tasdiqlangan Hujjatlarni qimmatlilagini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2024-yil 24-avgust,
21-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 29-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
 adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagি
 21-mh-son buyrug'iiga
 ILOVA

Hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartishlar

1. 2-bandda:

to'rtinchи xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Ekspert komissiyasi (bundan buyon matnda EK deb yuritiladi) — davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida hujjatlarning, shu jumladan boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish va hujjatlarni arxiv saqloviga topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni olib boruvchi, o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan doimiy faoliyat yurituvchi maslahat organi hisoblanadi;";

beshinchи xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Markaziy ekspert komissiyasi (bundan buyon matnda MEK deb yuritiladi) — davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlarning, shu jumladan boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish va hujjatlarni arxiv saqloviga topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni olib boruvchi, davlat organi va tashkiloti hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishni amalgaga oshirish uchun tuziladigan, o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan doimiy faoliyat yurituvchi maslahat organi;";

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Ekspert-tekshiruv komissiyasi (bundan buyon matnda ETK deb yuritiladi) /Ekspert-tekshiruv uslubiy komissiyasi (bundan buyon matnda ETUK deb yuritiladi) — arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlarida boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlar qimmatliligi ekspertizasini tashkil etish va hujjatlarni arxivlarga saqlash uchun topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni o'tkazish hamda davlat arxivlarining jamlash manbai bo'lган davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi markaziy ekspert komissiyalari va EK faoliyatiga rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish uchun tuziladigan doimiy faoliyat yurituvchi komissiya;";

yettinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

sakkizinchи — o'n ikkinchi xatboshilar tegishli ravishda yettinchi — o'n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

sakkizinchи xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Markaziy ekspert-tekshirish komissiyasi (bundan buyon matnda METK deb yuritiladi) — uslubiy va amaliy ishlarni olib borish uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini doimiy saqlovchi vazirliklar, idoralar, tarmoq davlat fondlari va tashkilotlarining MEKlariga rahbarlik qilish

va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarkiv” agentligi (bundan buyon matnda “O‘zarkiv” agentligi deb yuritiladi) huzurida ish olib boradigan doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya;”.

2. 20-banddan “davlat arxivlari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.
3. 30-banddagи “tegishli” degan so‘z “kasbiy kompetentlik guvohnomasiga ega bo‘lgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
4. 1, 1b, 2, 2b, 3, 3b, 4, 4b va 5b-ilovalar matnidagi “Arxiv muassasasi ETK (ETUK)ning” degan so‘zlar “ETK (ETUK)ning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

312 Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
27-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2360-1*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida" 2021-yil 24-avgustdagি 538-son hamda "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 8-fevraldagи 72-son qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi "O'zarxiv" agentligi Bosh direktorining 2012-yil 9-apreldagi 29-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2360, 2012-yil 11-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 19-son, 214-modda) bilan tasdiqlangan Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2024-yil 24-avgust,
22-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 29-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagи 22-mh-
son buyrug'iga
ILOVA

Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. 3-bandda:

to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Ekspert-tekshiruv komissiyasi (bundan buyon matnda ETK deb yuritiladi) /Ekspert-tekshiruv uslubiy komissiyasi (bundan buyon matnda ETUK deb yuritiladi) — arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlarida boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnika va boshqa maxsus hujjatlar qimmatliligi ekspertizasini tashkil etish va hujjatlarni arxivlarga saqlash uchun topshirishga tayyorlash bo'yicha uslubiy va amaliy ishlarni o'tkazish hamda davlat arxivlarining jamlash manbai bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi Markaziy ekspert komissiyalari (bundan buyon matnda MEK deb yuritiladi) va EK faoliyatiga rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish uchun tuziladigan doimiy faoliyat yurituvchi komissiya;”;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Markaziy ekspert-tekshirish komissiyasi (bundan buyon matnda METK deb yuritiladi) — uslubiy va amaliy ishlarni olib borish uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini doimiy saqlovchi vazirliklar, idoralar, tarmoq davlat fondlari va tashkilotlarining MEKlariga rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi (bundan buyon matnda "O'zarxiv" agentligi deb yuritiladi) huzurida ish olib boradigan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya;”;

oltinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

2. 20 va 22-bandlardagi "ETUK" degan so'z "METK" degan so'z bilan almashtirilsin.

3. 21-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"21. Tashkilotni davlat arxivlarining asosiy jamlash manbalari tarkibiga kiritish to'g'risidagi ma'lumotnomaga 3 nusxada tuziladi: birinchi nusxa tashkilotning davlat arxivini tomonidan yuritiladigan kuzatuv yig'majildga joylashtiriladi, ikkinchi nusxa arxiv ishi bo'yicha tegishli hududiy boshqarmaning ETK ("O'zarxiv" agentligida — METK) ish yuritishida foydalanish uchun olib qo'yiladi, uchinchi nusxa tashkilot rahbariga ETK (METK)ning tashkilotni davlat arxivining asosiy jamlash manbalari ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi qaroridan ko'chirma bilan bирgalikda yuboriladi.”.

4. 30-banddagi "Respublikasi markaziy davlat" degan so'zlar "milliy" degan so'z bilan almashtirilsin.

5. 32-banddan "bosh" degan so'z chiqarib tashlansin.

6. 33-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“33. Davlat arxivlarining asosiy jamlash manbalari ro‘yxati loyihasining kelishilishi to‘g‘risidagi ETK (METK) qarori bayonnomaga bilan rasmiylashtirilib, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Ro‘yxat oxirida, pastki chap burchagida Arxiv ishi boshqaruv organi ETKning (METK) “kelishilgan” degan shtampi qo‘yiladi, bayonnomaning raqami va sanasi ko‘rsatiladi hamda arxiv ishi hududiy boshqarma rahbari (O‘zbekiston milliy arxivlari uchun — “O‘zarxiv” agentligi direktori) tomonidan tasdiqlanadi.”.

7. 34-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Arxiv ishi boshqaruv organi ETK (METK)ning davlat arxivlarining asosiy jamlash manbalari ro‘yxatini kelishish to‘g‘risidagi qarori ro‘yxatni tasdiqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.”.

8. Nizomga ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“TASDIQLAYMAN

organ nomi, lavozimi

F.I.Sh, imzo

sana

Davlat arxivining asosiy jamlash manbalari ro‘yxati SHAKLI*

(davlat arxivining nomi)

T/r	Tashkilot indeksi**	Tashkilot nomi	Mulkchilik shakli (davlat, nodavlat)	Hujjatlarni qabul qilish shakli: to‘liq — 1, tanlanma: turi bo‘yicha — 2.1, guruhi bo‘yicha — 2.2	Qabul qilinayotgan hujjatning turi	Izohlar***
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.
1. Davlat organlari						
	1.1.					
	1.2.					
2. Iqtisodiyot. Statistika						
	2.1.					
	2.2.					
3. Sanoat						
	3.1.					
	3.2.					
4. Qishloq, o‘rmon, suv xo‘jaligi						
	4.1.					
	4.2.					

5. Qurilish. Arxitektura					
5.1.					
5.2.					
6. Transport					
6.1.					
6.2.					
7. Aloqa. Radiouzatish. Televideniye					
7.1.					
7.2.					
8. Savdo. Umumiy ovqatlanish					
8.1.					
8.2.					
9. Ta'minot. Tayyorlov. Sotish					
9.1.					
9.2.					
10. Moliyalashtirish. Kreditlash. Davlat sug'urtasi					
10.1.					
10.2.					
11. Uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish					
11.1.					
11.2.					
12. Ta'lim. Kadrlar tayyorlash					
12.1.					
12.2.					
13. Fan					
13.1.					
13.2.					
14. Madaniyat. San'at. Matbuot. Madaniy-ommaviy ishlari					
14.1.					
14.2.					
15. Sog'liqni saqlash. Jismoniy tarbiya. Sport. Ijtimoiy ta'minot					
15.1.					
15.2.					
16. Adliya. Sud. Prokuratura					
16.1.					
16.2.					
17. Jamoat tashkilotlari					
17.1.					
17.2.					
18. Boshqa sohalar					
18.1					

	18.2.	Ro'yxatdagi jami tashkilotlar	Shu jumladan mulkchilik turi bo'yicha: davlat, nodavlat	Shu jumladan qabul qilish shakllari bo'yicha: 1, 2.1, 2.2		
--	-------	-------------------------------------	---	---	--	--

01.01.20__ y. holatiga jami

ETK kotibi imzosi"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

313 Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
30-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2219-15*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-apreldagi 148-son "Davlat veterinariya nazorati sohasidagi ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartibi to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi hamda 2023-yil 15-avgustdagi 386-son "Geografik obyektlarga nom berish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2011-yil 22-fevraldagli 1-yu-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2219, 2011-yil 18-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 16-son, 167-modda) bilan tasdiqlangan Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

Sh. SHERMATOV

Toshkent sh.,
2024-yil 21-avgust,
272-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 31-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
 raqamli texnologiyalar vazirining 2024-yil
 21-avgustdagи 272-mh-son buyrug'iga
 ILOVA

**Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga
 kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. 83-bandning oltinchi xatboshisidagi “posyolka” degan so‘z “shaharcha” degan so‘z bilan almashtirilsin.
2. 89-bandning “l” kichik bandi beshinchi — yettinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:
 “tirik asalarilar solingan posilkalarda — “Ehtiyyot qiling. Asalarilar. Quyoshda tutib turilmasin. Veterinariya sertifikati bilan” — “Ostorojno. Pcheli. Na solnse ne derjat. S veterinarnim sertifikatom”;
 mo‘yna va kemiruvchilar terisi solingan posilkalarda — “Mo‘yna. Veterinariya sertifikati bilan” — “Pushnina. S veterinarnim sertifikatom”;
 jun, dag‘al jun, soch, pat, momiq solingan posilkalarda — “Jun (dag‘al jun, soch, pat, momiq). Veterinariya sertifikati bilan” — “Sherst (shetina, volosi, pero, pux). S veterinarnim sertifikatom”;”.
3. 98-bandning birinchi va uchinchi xatboshilaridagi “guvohnomasi” degan so‘z “sertifikati” degan so‘z bilan almashtirilsin.

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг
норматив-хукуқий хужжатларини давлат рўйхатидан
ўтказиш ҳолати тўғрисида
МАЪЛУМОТИ**

I. Давлат рўйхатидан ўтказилди:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldaggi 22024/2-sod “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda qo‘srimcha va yordamchi funksiyalarni autsorsing shartlarida tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buugiqqa o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2024-yil 19-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3367-1.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 24-iyuldaggi 23/12-sod “O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi qarori.

2024-yil 20-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1829-4.

3. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2024 йил 9 августдаги 427-сон “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тергов ҳибс-хоналарининг ички тартиб қоидаларининг 180-бандига ўзгартириш киритиш тўғрисида”ги бўйруфи.

2024 йил 23 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2456-7.

4. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 24 июлдаги 164-сон “Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида автомобиль ва темир йўл транспорт воситаларида божхона назорати остидаги товарлар ташилганда юк бўлимларига маҳсус божхона пломбалари қўйиш қоидаларига ўзгартириш ва кўшимчалар киритиш ҳақида”ги бўйруфи.

2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2904-4.

5. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 24 июлдаги 165-сон “Дастлабки, даврий ва тўлиқ бўлмаган божхона юк декларацияларини расмийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги бўйруфи.

2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3296-3.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 22-iyuldagı 2024/3-son “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2024-yil 26-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3360-1.

7. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 20-avgustdagı 19-mh-son “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihibarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyotiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2024-yil 26-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3470-1.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солиқ кўмитасининг 2024 йил 15 августдаги 2024-15-сон “Кассир-операциячининг назорат-касса дафтири шакли ва уни тўлдириш тартибини тасдиqlаш тўғрисида”ги қарорнинг 1-иловасига ўзgartiriшлар киритиш хақида”ги қарори.

2024 йил 26 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2309-2.

9. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 26-avgustdagı 24-mh-son “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3553.

10. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagı 23-mh-son “Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1703-2.

11. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagı 20-mh-son “Elektron arxiv to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2317-1.

12. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagı 21-mh-son “Hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2347-2.

13. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 24-avgustdagı 22-mh-son “Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro‘yxatini tuzish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2024-yil 27-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2360-1.

14. O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining 2024-yil 21-avgustdagı 272-mh-son “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalariiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2024-yil 30 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2219-15.

II. Давлат реестридан чиқарилди:

1. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва ахолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Молия вазирлигининг 2002 йил 18 февралдаги 588 ва 35-сон «Ишлайдиган оналарга бола икки ёшга етгунга қадар уни парвариш қилганлиги учун ҳар ойлик нафака тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори (рўйхат рақами 1113, 2002 йил 14 март), шунингдек унга ўзгартириш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 1113-1, 2008 йил 28 февраль), (рўйхат рақами 1113-2, 2013 йил 29 май).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

2. Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва ахолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирининг 2002 йил 1 апрелдаги 21-сон «Давлат ижтимоий суғуртаси бўйича нафақалар тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1136, 2002 йил 8 май), шунингдек унга ўзгартириш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 1136-1, 2003 йил 20 май), (рўйхат рақами 1136-2, 2007 йил 28 июль), (рўйхат рақами 1136-3, 2015 йил 15 апрель).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

3. Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси директорининг 2007 йил 3 апрелдаги 25-сон “Фойдали моделга, саноат намунасига ҳамда дори воситаси ёки пестицидга тааллуқли ихтирога Ўзбекистон Республикаси патентининг амал қилишини узайтириш қоидалари”ни тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1678, 2007 йил 5 май), шунингдек унга ўзгартиришлар (рўйхат рақами 1678-1, 2011 йил 30 сентябрь).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

4. Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси директорининг 2008 йил 25 марта 13-сон “Селекция ютуғига Ўзбекистон Республикаси патентининг амал қилишини узайтириш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1793, 2008 йил 16 апрель), шунингдек унга ўзгартиришлар (рўйхат рақами 1793-1, 2011 йил 30 сентябрь).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

5. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги Бош директорининг 2017 йил 27 марта 17-сон “Товар белгисига ва хизмат кўрсатиш белгисига доир гувоҳноманинг ҳамда товар келиб чиқсан жой номидан фойдаланиш ҳукуқи тўғрисидаги гувоҳноманинг амал қилиш муддатини узайтириш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 2873, 2017 йил 10-апрель), шунингдек унга ўзгартириш (рўйхат рақами 2873-1, 2017 йил 16 ноябрь).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

6. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги ва Халқ таълими вазирлигининг 2018 йил 9 июлдаги 12-2018, 7-мҳ-сон “Академик лицейларда саралаш имтиҳонларини ўтказиш, расмийлаштириш ва нати-

жаларини эълон қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақида”ги қарори (рўйхат рақами 3040, 2018 йил 17 июль).

2024 йил 27 августда давлат реестридан чиқарилди.

Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-хуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.